

**Ягона мақсадимиз – адолат ва қонун устуверлигини
таъминлаш орқали ҳапқимизни рози қилиш.**

Шавкат Мирзиёев



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda На посту



2025-yil 1-may
payshanba
№ 18 (4712)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

Моҳир кулолниң сөхрли қўллари

Фарғона вилоятининг Риштон тумани азалдан моҳир кулолла-
ри, ажойиб сопол буюмлари, қандак ўриклирию девзира гуручи
 билан шуҳрат қозонган.

Эътиборлиси шундаки, Риштонда кулолчилик буюмларини пи-
шириш ва ишлов беришининг бетакрор ва ўзига хос технологияси
яратилган бўлиб, бу усуслар минг йиллар давомида ардоқлаб
келинмоқда. Риштон кулоллари томонидан тайёрланган маҳ-
сулотлар ўзининг дизайнни, табиий ранги ва қалампир нусхали
нақшларга бойлиги билан ажralиб туради. Ҳозирда туманда
юзлаб моҳир кулоллар меҳнат қиласи ва улар яратган санъат
асарлари дунёдаги турли музейлар коллекциясига киритилган.

Ўзбекистон Бадиий академияси аъзоси Бахтиёр Назиров ўз
услуби ва йўналишига эга ҳунармандлардан бири саналади.
У қадимий ва анъанавий «Ишқор» услугида сопол буюмлар ишлаб
чиқариш ва безашда бой амалий тажриба соҳибидир.



2



Моҳир кулол кўплаб кўрик-танлов ва фестивалларда ишти-
рок этиб, катта ютуқларни қўлга киритиб келяпти. Жумладан:
■ «Ташаббус-2003», «Ташаббус-2010» танловларининг
совриндори;
■ 2012 йили Россиянинг Калуга шаҳрида ўтказилган
«Этномир» ҳунармандчилик фестивалида «Эски анъаналарни
сақлаш» номинациясида фахрли 2-ўрин соҳиби;
■ 2014 йили Москва шаҳрида ўтказилган «Ладъя» фести-
вали голиби;
■ Красноярск, Новосибирск, Екатеринбург, Томск шаҳар-
ларида кулолчилик йўналишида ўтказилган фестиваллар
совриндори;
■ 2016 йилдан бери ҳар йили Япониянинг Мамико шаҳрида
япон ва риштонлик кулоллар ҳамкорлигида ташкил этиладиган
кўргазманинг асосий иштирокчиларидан;
■ 2018 йилдан бўён Россия Федерацияси Рязань вилоя-
тининг Скопин шаҳрида бўлиб ўтадиган кулолчилик фести-
вали доимий қатнашчиси ҳамда 2021 йилда шу кўргазмада
«Маэстро» унвони соҳиби.

USHBU SONDA:

«ОМАД
ФОРМУЛАСИ»НИНГ
СИРИ


9



КУЛФАТЛАР
САБАБЧИСИ

ЁЛФОН

20



JAMIYAT TAYANCHI



21



ОРАМИЗДАГИ ОДАМЛАР

Моҳир кулолниң сөхрли қўллари

(Давоми. Бошланиши
1-бетда.)

1983 йилда Риштон бадиий кулолчилик заводида оддий уста бўлиб иш бошлаган ҳунарманд бугунга келиб ўзининг шахсий устахонасини очган ва «Риштон кулолларининг тарихий дурданлари» музейини ташкил этган.

Шуни алоҳида эътироф этиш зарурки, Бахтиёр Назиров – тумандаги энг катта уста-кулоллар сулоласи вакили. У тупроқдан мўъжизавий буюмлар яратиш ва безашни акаси, «Шұхрат» медали соҳиби унвони бор Алишер Назировдан ўрганган.

Опаси, истеъфодаги майор Дилором Назирова эса кўй йиллар ички ишлар органларида хизмат қилган бўлиб, «Шұхрат» медали ва «Фидокорона хизматлари учун» ордени соҳиби ҳамдир.

Маҳоратли уста 2017 или ўзбекистон Бадиий академияси ва Ҳунармандлар уюшмаси билан биргаликда Тошкент марказий кўргазмалар залида «Риштон мовий кулолчилиги» мавзусида, ҳамда 2022 йил октябрь-ноябрь ойларида Японияда ҳам ўзининг шахсий кулолчилик кўргазмасини намойиш этди.

– Кулолчилик оддий ҳунар эмас, у кишидан қунт, сабр-тоқат ва синчковликни талаб этади, – дейди у. – Анъанавий Риштон кулолчилиги IX асрдан бўён машҳур. Риштон кулолчилик маҳсулотларини, қайси бир кўргазмада бўлмасин, узоқдан туриб осонгина таниш мумкин. Чунки бизнинг маҳсулотлар ўзининг анъанавий рангларига эга. Масалан, мен мовий – осмон рангини жуда яхши кўраман ва ўз ишларимда ундан кўп фойдаланаман. Уста маҳоратли бўлса, у ясаган ва безаган идишлардаги ранглар кўзни чарчатмайди. Аксинча, жилва бериб,



да аҳамиятга эга. Табиий гиёҳлардан тайёрланган бу ранглар бир-бири билан уйғунашиб буюмларга ўзига хос жозиба беради, асрлар давомида ўз кўринишини йўқотмаслик хусусияти билан ажralиб туради. Шу боис маҳсулотлар нафақат

66

МАЪЛУМОТ УЧУН:

Бахтиёр Назиров қадими кулолчиликнинг энг нозик ва мураккаб анъаналарини асрлаб авайлаб келмоқда.

Масалан, у рангларга жило беришда қирқбўғин ўтидан олинадиган ноёб маҳсулотдан фойдаланади. Мазкур гиёҳни сентябрь, октябрь ойларида Фурумсарой адирларидан териб, ўша ернинг ўзида ёқиб, қулини Риштонга олиб келади. Сўнгра кулни бир неча босқичли ишловдан ўтказиб, тайёр маҳсулот ҳолига келтиради. Ушбу маҳсулот билан ишлов берилган идишларнинг ранги узоқ вақтгача ўз хусусиятини йўқотмайди.

Бундан ташқари, кулолчилик маҳсулотлари сиртига қўлланиладиган лояномли маҳсулотни тайёрлашда сой ва дарёлардан териб олинадиган оқ тошлардан фойдаланилади.

инсонни ўзига ром этади.

Моҳир устанинг қайд этишича, Риштон кулолчилик мактабида ранг-тасвирларни ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Хусусан, идишга чизилган ложувадр-мовий ранг инсон қалбига улуғворлик бағишлиб, фалаба сари даъват этади. Мис-феруза, малҳаш-қўнғир, зардпазлик-сарик, сафедпазлик-оқ ранглар кўхна кулолчилик анъаналарида алоҳи-

ички, балки ташки бозорда ҳам машҳур ва харидоригир.

Бахтиёр Назиров ҳозирда Президентимиз томонидан Риштонда ташкил этилган Халқаро кулолчилик марказида иш юритувчи бўлиб ишлайди. Шу ерда унинг шахсий устахонаси ҳам бор. У қадими ҳунар сирларини ўғли Диёржонга ҳам ўргатиб, у билан ҳамкорликда фаолият юргизиб келмоқда.

Ҳунарманднинг файзли устахонасига борган киши ҳайратлар оғушида қолиши бор гап. Қўл меҳнати ёрдамида оддий лойдан мўъжизалар яратиб, унга жило бераётган уста ва шогирдларнинг маҳорати ҳар қандай кишини лол қолдиради. Шу боис бу устахонадан хорижий меҳмонларнинг ҳам қадами узилмайди.

Уларнинг барчаси отамерос ҳунарни ардоклаб, дунёга намойиш этаётган Бахтиёр Назировнинг сөхрли қўлларида таҳсин ўқишиди.

**Абдувосит СИДИҚОВ,
ӯз мухбири.**
Фарғона вилояти.

ИНСОН ҚАДРИ УЛУФ

ХОДИМЛАРДАН МИННАТДОРМИЗ

– дейди сайёр қабулга келган фуқаро Муниса Кунишева

Куни кеча Ички ишлар вазири, генерал-майор Азиз Ташпулатов томонидан соҳа мутасаддилари иштирокида фуқаролар учун ташкил этилган навбатдаги шахсий қабул жараёнларида ички ишлар органлари фаолиятига доир мурожаатлар, шунингдек, хизматга (ёки ўқишига) қабул қилиш, лавозимга қайта тикланиш ва бошқа масалалар юзасидан билдирилган таклиф ҳамда шикоятлар атрофлича кўриб чиқилди.

Хусусан, қабулга келган фуқаролар М. Кунишева, З. Мирзахмедова ва Н. Ражабовалар фирибгарлардан озор чекиб, оғир вазиятга тушиб, ички ишлар органларида ариза билан мурожаат қилганларида тергов ходимлари ёрдам берганларни учун шахсан вазирга миннатдорлик билдиришиди. М. Кунишева Чирчик шаҳридаги уйини танишига сотади, лекин узоқ вақт пулини ололмай сарсон-саргардан бўлади. Худди шундай Н. Ражабова ҳам уйини олиб-сотарларга ишониб топшириб, кейин алданниб, ҳатто ўзи ёш боласи билан кўчада қолади.



Қийин вазиятга тушиб қолганида кўрсатилган беғараз ёрдами учун фуқаролар вазир ҳузуридаги Тергов бошқармаси раҳбарияти, Чирчик шаҳар ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлими бошлиғи, подполковник Руфат Рўзибоев ҳамда Бўстонлиқ тумани ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлими бошлиғи, подполковник Отабек Бегматовларга ўз миннатдорликларини избор этиб, шундай ходимлар борлигидан фахрланиб, бу тизимдаги бошқа ходимларга ўрнак бўлаётганини алоҳида таъкидлаб ўтишиди.

– Аввал ички ишлар органлари ходимларига бўлган ишончимиз бу даражада эмасди, – дейди М. Кунишева. – Қийналиб, ишимиз ҳал бўлмай юрғанимизда ички ишлар органларининг фидойи ходимлари жонимизга оро киришиди. Мушкулимиз бундай ижобий ҳал бўлади, деб ўйламаган эдик. Ходимлар қонун устуворлигини таъминлаб, адолат юзага чиқишида моҳирона ҳаракат қилишиди. Тизимда мана шундай ҳалкни ўйлайдиган, одамлар дардини ўз дардидай қабул қиласидан ҳуқуқ ҳимоячилари борлигини кўриб, биз каби фуқароларнинг ҳуқуқлари ишончли қўлларда эканлигига яна бир бор амин бўлдик. Қабул жараённада Ички ишлар вазиридан ўз ишининг устаси бўлган терговчилардан миннатдорлигимизни ва уларни муносиб рағбатлантириш лозимлигини сўрадик. Албатта, бу Давлатимиз раҳбари томонидан олиб бориляётган ислоҳотларда инсон қадри энг биринчи ўринга қўйилганининг амалдаги исботидир. Ички ишлар вазирилиги идора ва тизимларида фуқаролар ҳуқуқларини ҳимоя қиласиган, юрти ва Ватанини севадиган осойишталик посбонлари сафи янада кўпаяверсин.

**Сарвар СОБИРОВ,
ӯз мухбири.**

O'RGANISHLAR DAVOM ETMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining farmoyishi bilan Navoiy viloyatida kriminogen vaziyatni tahlil qilish hamda hududiy ichki ishlar organlari faoliyatini samaradorligini oshirish yuzasidan kompleks inspektorlik tekshiruvi o'tkazilmoqda.

O'rganishlar jarayonida respublika ishchi guruhi tomonidan joriy yilning hisobot davrida Navoiy viloyatining 330 ta mahallasida kriminogen vaziyat, shuningdek, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, ijro hamda xizmat intizomiga rivoja etilishi ahvoli kompleks tahlil qilinib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan amaliy yordam ko'rsatilmoqda.



Viloyatda bo'lib turgan Ichki ishlar vaziri tomonidan respublika ishchi guruhi va soha mas'ullari ishtirokida viloyatning Zarafshon shahri, Tomdi, Konimex, Karmana va Nurota tuman-

larida davlat rahbarining joriy yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish tizimini takomillashтирishga qaratilgan qaroring ijrosi hamda soha qidirishga qaratilgan shart-sharoitlar, jinoyatchilikning oldini olish

amalga oshirilgan ishlar, hududiy ichki ishlar ma'muriy binolarining ahvoli va texnik ta'minoti, aholi bilan yaqindan ishslash uchun yaratilgan shart-sharoitlar, jinoyatchilikning oldini olish

borasidagi tadbirlarning samaradorligi, boshqa mutasaddi idoralar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi va soha qidirishga qaratilgan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish choralariga jiddiy e'tibor qaratildi.

Zarafshon shahrida joylashgan 12-sonli Jazoni ijro etish muassasasida bo'lgan mas'ullar, muassasada saqlanayotgan mahkumlarga yaratilgan shart-sharoitlar, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash, kasbga o'rgatish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan ishlar hamda koloniyada tashkil etilgan qurilish hamda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish sexlari va ularning ish samaradorligi o'rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan vazifalar belgilandi.

Respublika ishchi guruhining Navoiy viloyatidagi o'rganishlari davom etmoqda.



MAKTAB – TARAQQIYOT POYDEVORI

ZARUR SHAROIT VA RAG'BAT BO'LSA...

IIVga biriktirilgan Kitob tumanidagi 35-sonli umumta'lum maktabida o'tgan qisqa vaqt mobaynida tashkili va tarbiya-metodik jihatdan manzilli ishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda, ishchi guruhi va mas'ullar tomonidan o'rganishlar olib borilib, ta'lum maskanining ma'muriy binosi, o'quv xonalari, qo'shimcha binolar infratuzilmasi ko'zdan kechirildi. Ta'lum jarayoni kuzatildi, maktab mas'ullari, o'qituvchilar bilan suhbatlashilib, mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilandi.



Tumanning «Obod» mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan maktab binosi 1969-yilda foydalanishga topshirilgan. Oxirgi marta bundan 17 yil muqaddam kapital ta'mrlangan. Shu bois niyoyatda ta'mortalab holga kelib qolgan maktab binosi homiylik asosida joriy ta'mrlanadigan bo'ldi.

Aprel oyi boshida ta'lum muassasasiga olib boruvchi yo'l va uning atrofi, hovlisi, yordamchi xonalarda ta'mrlash ishlari boshlab yuborildi. Maktabning ichki va tashqi yoritish tizimi,

6 ta sinfonasi devorlari va pol qismi to'liq ta'mirlandi. Ta'mrlangan sinfonalarining bittasi yo'l harakati qoidalari o'rgatishga moslashtirilib, turli ko'rgazmali jihozlar, adabiyotlar bilan ta'minlandi. Yana bir sinfxona chaqiriqqacha yoshlarni tarbiyalash yo'naliishiha ixtisoslashtirildi. Maktab hovlisida ham obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borildi.

– Qayerdaki, zarur sharoit va rag'bat bo'lsa, ishda unum bo'ladi, – deydi maktab direktori Marhabo Shukrullayeva.

– O'quvchi yoshlarimizga ta'lum berayotgan 43 nafar o'qituvchidan iborat pedagogik jamoamiz shart-sharoitlar yaratilayotganidan mammun. O'quvchilarga zamonaviy bilim berish yo'lida yanada astoydil harakat qilamiz.

Sadoqat Mahmudova – oliy toifali biologiya fani o'qituvchisi. Tuman, viloyat va respublika miyosidagi tanlovlardan faol qatnashib keladi. Mustaqil tadqiqotchi. E'tiborli jihat, uning ko'plab shogirdlari hozir pedagogika sohasida faoliyat yuritaydi. Ayrimlari oliy ta'lum



muassasalarida davlat granti asosida tahsil olmoqda.

O'zbek tili o'qituvchisi Nozima Sohibovaning o'quvchilari fan olimpiadalari va ko'rik-tanlovlarda doimiy sovrindor bo'lib kelmoqda. Dars mashg'ulotlari tuman miyosida ommalashtirilgan, endilikda viloyat miyosida ham ommalashtirishga tavsiya etilgan.

Ta'kidlash joiz, tuman IIB JXX HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Mirjalol Homidov va psixolog, leytenant Zarif Berdiyev maktabda huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida tez-tez profilaktik tadbirlarni o'tkazib kelmoqda. Qolaversa, maktabda 15 ta fan, 10 ga ya-

qin sport hamda hunarmandlik va musiqa to'garaklari ochilgan bo'lib, yoshlarning bo'sh vaqt mazmunli o'tmoqda. Shu bois keyingi yillarda o'quvchilar o'rtaida jinoyat va huquqbazarlik holatlari umuman sodir etilmadi. Profilaktik hisobda turuvchilar ham yo'q.

Maktab kutubxonasida 3 mingdan ortiq kitoblar bor. Yaqinda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi tomonidan yuzga yaqin kitoblar taqdim qilindi. 5-11-sinf o'quvchilari «Bir oyda – bir kitob» loyihasida doimiy ravishda faol ishtirok etib, sovrinli o'rnlarni egallab kelmoqdalar.

**Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.
Qashqadaryo viloyati.**

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

QAYSAR HAYDOVCHINING
«GAPI» O'TMADI

Xorazm viloyati IIB JXX YHXB YPX batalyon 2-safarbar guruhi yo'l-patrol xizmati inspektori, safdor Sarvarbek Sotliqov soat taxminan 7:00 larda Xonqa tumani markazidan o'tgan D-213 avtomobil yo'lining 12-kilometrida yo'l harakati qoidalarini qo'pol ravishda buzib harakatlanayotgan «Lacetti» avtomashinasi haydovchisiga to'xtash ishorasini beradi. Haydovchi avtoulovini yo'l chetida to'xtatadi.

Hujjatlarni ko'zdan kechirgan inspektor haydovchini spirtli ichimlik iste'mol qilganlikda gumon qilib, tibbiy ko'rnikdan o'tishga taklif qiladi. Haydovchi esa spirtli ichimlik iste'mol qilganini tan oladi. Biroq inspektorga holatni rasmiylashtirmaslik evaziga 10 million so'm beinishini aytadi. Ammo xodim uning bu harakati jinoyat ekanini tushuntirib, tibbiy ko'rnikdan o'tishga undaydi. Haydovchining spirtli ichimlik iste'mol qilgani aniq bo'lgach, darhol ma'muriy bayonnomani rasmiylashadir va avtomashina vaqtinchalik saqlash uchun jarima maydoniga joylashtiriladi.

Qaysar haydovchi xizmat vazifasini bajarishiga xalal berib, Sotliqovni pora olishga undashda davom etadi. Xodimning huquqiy tushuntirishlari esa besamar ketadi.

Pora evaziga barcha noqonuniy ishlarni hal qilish mumkin, deb o'yagan urganchlik K.T. osoyishtalik posboniga 10 million so'm pora bergan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi.

– Safdor Sarvarbek Sotliqovning ichki ishlar organlarida xizmat qilayotganiga 14 yildan oshdi, – deydi viloyat IIB JXX YHXB Axborot guruhi katta mutaxassis, kapitan Shavkat Bobojonov. – U tirishqoqligi, mas'uliyatni his qila bilishi, topshirishlarni o'z vaqtida aniq va puxta bajarishi, xizmat intizomiga qat'iy riyoja etishi bilan hamkasblariga o'mak bo'lib kelmoqda. Qolaversa, yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida joylarda o'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlerida ham faol ishtirot etmoqda.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

CHEKKA HUDUDLARDA

SHAXSIY NAMUNA – TA'SIRCHAN USUL

«Birlashgan» mahallasi Sardobadagi katta mahallalardan. Unda qariyb 5 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Profilaktika inspektori kapitan Bekzod Soatov ushbu mahallada uch yildan beri faoliyat ko'rsatadi. U dastlab bu yerda xizmat faoliyatini boshlaganida mahalla «qizil» toifada edi. Hamkorlikdagi ishlar samsari o'laroq ijobjiy natijaga erishmoqda. O'tgan yili mahalla «yashil» toifaga o'tdi. Bunga o'z-o'zidan erishilmadi, albatta.

Oldin ham bir necha mahallada profilaktika inspektori vazifasida ishlab tajriba orttirgan Bekzod «Birlashgan»dagi ishini yengil hayot kechiruvchi, ichkilikbozlikka mukkasidan ketgan shaxslarni, nizoli oilalarni aniqlashdan boshladi. So'ngra ular bilan alohida shug'ullandi. Doimiy bandligini ta'minlash uchun tuman mutasaddilarini va mahalla raisiga «tinchlik bermadi». Natijada 10 nafardan ortiq fuqaroga subsidiya asosida o'zini o'zi band qilishga imkon yaratib berildi. Mahallada avtomobilarni ta'mirlaydigan, elektr payvandlash bilan shug'ullanadigan ustalar ko'paydi. Kecha omadsizligidan siqilib, ichkilikbozlikka berilgan yigitlar aslida qo'ligul ustalar ekani ma'lum bo'l-



di. Ana shunday yoshlar ish bilan ta'minlangach, mahalladagi kriminogen vaziyat barqarorlashdi.

– Savobda hikmat katta, – deydi kapitan B.Soatov. – Bayramlar arafasida homiyalar tomonidan mahalladagi ehtiyojmand oilalarga sovg'a-salomlar ulashiladi. Buning uchun ularga rahmat aytamiz. O'zimiz esa qo'limizdan bo'lmasa, yo'llimidan deganlaridek, sovg'alarning egasiga, manzilli va maqsadli topshirilishiga ko'maklashamiz.

Mahalladagi o'quvchi yoshlar profilaktika inspektorining doimiy e'tiborida. Yaqinda hudduda joylashgan 5-maktabda kashandalik va ichkilikbozlikka qarshi targ'ibot tadbirini o'tkazdi. Tadbirga oilaviy poliklinika shifokorlari ham taklif etildi. Yoshlarga tamaki chekish va spirtli ichimlik ichishning salbiy oqibatlari to'g'risida ko'rgazmali qurollar, buketlar yordamida tushunchalar berildi.

Kapitan Bekzod Soatov ma'naviy-axloqiy tarbiyada ham eng ta'sirchan usul – shaxsiy namuna qat'iy amal qiladi. Balki shu tufayli hozirda mahalladan 5 nafar yigit huquqni muhofaza qilish ta'lif muassasalariga o'qishga kirishga hozirlik ko'rayotgandir.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

IV TA'LIM MUASSASALARIDA

YUTUQLARI SALMOqli



Shodiyona Sobironova Davlatobod tumanidagi 3-sonli davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatni a'lo baholarga tamomlab, 2023-yilda IV Namangan akademik litseyiga qabul qilindi. U tirishqoqligi, tashabbuskorligi bilan tengdoshlari orasida alohida ajralib turadi. Xususan, litseydagagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirdorda doimo o'z bilim va salohiyatini namoyon etib keladi. Ayniqsa, Namangan viloyati IIB tomonidan o'tkazilgan «Zakovat» intellektual o'yinida litseyning qizlar jamoasi faxrli birinchi o'rinni egallashiga alohida hissa qo'shdi.

– Shodiyona joriy o'quv yilida namunali xulqi, barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirgani bois Ichki ishlar vazirining «O'qishdagi muvaffaqiyatlari uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Tarix fanidan o'tkazilgan olimpiyadada faol ishtirot etdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkazilgan sertifikat imtihonlarida tarix fanidan A, ingliz tili fanidan B2, ona tili va adabiyot

fanidan C+ darajalardagi sertifikatlarga ega bo'lib, IV Akademiyasiga kirish uchun 178 zaxira balni qo'lga kiritita oldi, – deydi litsey direktori, podpolkovnik Ilhomjon Burhonov.

– Ayni paytda u matematika fani dan o'tkazilayotgan Milliy sertifikat imtihoniga tayyorlanmoqda.

Shodiyonaning kelajakdagisi orzusi IV Akademiyasi kursanti bo'lish hamda ona Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishdir.

O'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

■ Джизакская область

КУРС НА РАЗВИТИЕ

В общеобразовательной школе № 12 в махалле Токчилик Шараф-Рашидовского района, закрепленной за руководством УВД области, ведется работа по улучшению условий обучения, укреплению материально-технической базы.


Класс Правил дорожного движения оснащен средствами наглядной агитации, дорожными знаками, макетами, телевизором и другими средствами. Во дворе сооружена площадка дорожного движения. Установленное здесь оборудование питается электроэнергией от солнечных панелей.

Подобным образом оснащен и класс по начальной допризывной подготовке. Сдан в эксплуатацию плац по строевой подготовке и площадка для воркаута. Отремонтирован и оборудован инвентарем спортивный зал.

Ведутся ремонтные работы в библиотеке и читальном зале. Приобретена тысяча книг художественной литературы.

Достроено ограждение школы, произведен ремонт вспомогательных помещений.

Принимаются меры по оснащению школы видеокамерами с функцией идентификации личности. По окончании учебного года будут отремонтированы 45 классных комнат, в каждой установят камеру наблюдения. Количество единиц в электронной системе контроля будет доведено до ста.



В планах – оснащение кабинетов по предметам «Иностранный язык», «Биология», «Физика», «Информатика», подключение к интернету, организация школьного радиовещания. Словом, реализуется концепция «Школа – академический лицей МВД – Академия МВД – сотрудник ОВД». В центре внимания находятся вопросы организации кружков, проведения смотров-конкурсов, соревнований, повышения правовой культуры учащихся и квалификации педагогов.



 День открытых дверей

Алижон
АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.

ВСЕ О ПРОФЕССИИ МУЖЕСТВЕННЫХ

По инициативе Управления охраны Ферганской области для молодежи на местах проводятся мероприятия воспитательного, духовно-просветительского характера.

Одно из них состоялось в отделе охраны Кувинского района.

В гости были приглашены учащиеся старших классов общеобразовательных школ района. Молодежь ознакомилась с деятельностью отдела охраны, условиями несения службы, вооружением и техникой, применяемой в работе.

В рамках мероприятия школьникам была представлена информация о значении службы охраны в обеспечении безопасности граждан и сохранности их имущества, качествах, необходимых для работы в этой структуре. Организаторы дали подробные ответы на интересующие их вопросы.



Прошли встречи со специалистами разных направлений. Организованы мотивационные выступления для молодежи. Состоялись лекции, в которых поднимались темы преданного служения стране, содействия предупреждению правонарушений.

Подобные мероприятия помогают юношам и девушкам определиться с будущей профессией, прививают патриотизм.

Абдуносит СИДИКОВ,
соб. корр.

Ферганская область.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz


ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

«ЭМАС ОСОН БУ МАЙДОН ИЧРА ТУРМОҚ...»

Ўрта мактабни тугатиб, отасидан оқ йўл олган Зумрад Қурбонова Бухоро автомобиль ва йўллар техникумининг сиртқи бўлимига ўқишга кирди. Чунки келажакда осойишталик посбони бўлишни дилига туккан эди. Ниятини амалга ошириш учун вилоят ИИБ Давлат автомобиль назорати бўлими бошлиғига мурожаат қилди. Ва уни автоинспектор қизлар гуруҳига хизматга қабул қилишди.



Ўз вазифасига вижданан, ўта масъулият билан ёндашган инспектор аёл кўп ўтмай ҳайдовчию йўловчилар орасида танилиб қолди. Чунки у ўтасинчков, талабчан, қатъиятли, муомалани ҳам ўрнига қўя оларди.

Кейинчалик Бухоро давлат университетини тутгатган З. Қурбонова вилоят ИИБ ППХ ва ЖТСБда катта инспектор сифатида фаолиятини давом эттириди. Ёзинг жазирамасию қишининг қаҳратон соvuқларида ҳам, оила ва хизматни уддабуронлик билан қўшиб олиб

бориши унга катта обрў келтириди, бошқаларга ўрнак бўлди.

Лавҳамиз қаҳрамони қайси соҳада ишламасин, ҳалолликнинг нони бутунлигини ўзига шиор қилиб олди ва кам бўлмади. У Бухоро шаҳар ИИБ Вояга етмаганлар бўйича бўлим бошлиғи ва вилоят ИИБ Терроризмга қарши курашиш бўлимининг «Аёллар қаноти» инспектори лавозимида ҳам самарали хизмат қилди. Сўнг вилоят ИИБ ҲООБга бевосита бўйсунувчи Вояга етмаганларга ижтимоий-хуқуқий ёрдам кўр-

ратиши маркази бошлиғи бўлиб, ўн йил шу лавозимда фаолият кўрсатди ва шу ердан пенсияга кузатилди.

Истеъфодаги майор Зумрад Қурбонованинг ички ишлар тизимидағи кўп йиллик самарали фаолияти, хизмат вазифасини бажариш чоғида кўрсатган фидойилиги давлатимиз томонидан муносиб тақдирланган.

– Ички ишлар органларида хизмат қилаётган аёлларга осон эмас, – дейди Зумрад опа сухбатимиз сўнгиди. – Ҳам оила юмушлари, ҳам хизмат мажбуриятлари... Менга асосан турмуш ўртоғим Эркин аканинг ёрдами катта бўлди. У киши ҳамиша мени қўллаб-қувватлади. Ишдан кеч қайтган пайтларимда суюнч ва юпанч бўлди. Қолаверса, фарзандимиз Алибекнинг комил инсон бўлиб етишида ҳам меҳнатлари катта.

ИИБ Бухоро академик лицейини тутгатган Алибек, айни пайтда Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтида таҳсил олмоқда. У ҳам келгусида ота-онаси сингари юртимизга камарбаста бўлиш ниятида.

Мирзоқул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.

Бухоро вилояти.



ГАЗЕТАСИННИГ
95 ЙИЛЛИГИ ОЛДИДАН



МУШТАРИЙЛАР ҚАЛБИНИ ЗАБТ ЭТИБ...

Таҳририятимизнинг истеъоддли фотомухбири Ҳабибулло Шодиев Тошкент шаҳрида таваллуд топган. У ҳозирги Ўзбекистон миллий университетининг журналистика факультетида таҳсил олган. 1991 йилдан Ички ишлар вазирлигининг нашрлари – «Постда» ва «На посту» газеталарида фаолиятини бошлаб, узоқ йиллар давомида самарали хизмат қилган. Ҳ. Шодиев соҳа ходимларининг мешақатли, шу билан бирга, шарафли касбини акс эттирувчи кўплаб фотосуратлар чоп этиб, муштариylар қалбидан чуқур жой олган.

ХАЛҚ ТАНЛАГАН РАИС

Истеъфодаги подполковник Азамjon Muratov Farfona шаҳридаги Фурқат номли маҳалла фуқаролар йиғинига раис этиб сайланганига уч йил бўлди. У вазифасига киришган кундан бошлаб, халқ билдирган ишончга муносиб бўлишни ўзига олий мақсад деб белгилаган эди. Ўтган давр мобайнида ана шу мақсадига эришиб, маҳалласини энг обод ва хавфсиз худудга айлантириди.



камералари билан назоратга олинган ва у профилактика инспекторининг хизмат хонасига интеграция қилинган.

Раиснинг жонсараклиги, маҳалла еттилиги аъзоларнинг фаоллиги сабабли фуқаролар ўртасида аҳиллик ва тутувлик мустаҳкамланиб, жиноят ва ҳуқуқбузарликлар

салмоғи ҳам камайишига эришилгапти.

Фуқаролар йиғини қошида 4 та жамоатчилик комиссияси тузилган бўлиб, улар таркибига маҳаллада обрў-эътиборга эга, фуқароларни ўз ортидан эргаштира оладиган энг намунали оқсоқоллар, кайвони онахонлар киритилган.

Масалан, «Оилавий қадриятларни мустаҳкамлаш» комиссияси аъзолари ўтган 2024 йилда 4 та, жорий йилнинг ўтган даврида 1 та ажralish ёқасидаги оиласи яраштиришга муваффақ бўлишди.

Фидойи раиснинг иш фаолиятини ўрганиш ва сухбатлашиш мақсадида борганимиздан, маҳалла фуқаролар йиғини биносида одам гавжум эди. Азамjon Muratov хонасида бир гурух оқсоқоллар билан маслаҳат ўтказяпти, маҳалла еттилигининг ҳар бир аъзоси эса ўз юмушлари билан андармон. Бино ҳовлисидаги орасталик, файз, ходимларнинг фуқароларга қилаётган самимий муносабати, тезкорлиги кайфиятимизни кўтариб юборди.

«Маҳалла – ватан ичра кичик ватан, қадриятлар қўргони», деган таърифнинг амалдаги ифодасини кўрай, десангиз, шу маҳаллага келаверинг.

Абдувосит СИДИҚОВ,
ўз мухбиримиз.

Farfona viloiti.

 Мы гордимся вами!

СТУПЕНЬ К НОВЫМ ДОСТИЖЕНИЯМ

В Ташкенте прошел Чемпионат Азии и Океании по боевому самбо. В престижном турнире приняли участие более 600 спортсменов из 25 стран. Самбисты Узбекистана продемонстрировали уверенную борьбу, пополнив копилку национальной сборной новыми наградами.



На снимке: старший лейтенант Ф. Рузиев (третий слева) с членами национальной сборной команды и тренерами.

Одним из ярких моментов соревнований стала победа старшего лейтенанта Фурката Рузиева – командира МООН УВД Самаркандской области. В весовой категории до 88 килограммов он занял первое место, завоевав золотую медаль.

Фуркат Рузиев уверенно прошел все этапы турнира, одержав победу над сильными соперниками из Сингапура и Казахстана.

– На протяжении последних пяти лет я готовлю Фурката Рузиева к соревнованиям, – рассказал его тренер-наставник, мастер

спорта международного класса Гайратжон Тогаев. – На Чемпионате Азии и Океании он выступал единственным представителем правоохранительных органов, поскольку действовали возрастные ограничения. Победа дала нелегко: конкуренция

была высокой. Сейчас активно готовимся к чемпионату мира по самбо, который пройдет в октябре.

Фуркат Рузиев – пятикратный чемпион мира и четырехкратный чемпион Азии. Его достижения – десятки медалей и кубков, за-

воеванных на чемпионатах в Казахстане, Японии, России, Киргизии, Сербии и других странах. Эти награды стали результатом его целеустремленности, упорства.

Заниматься спортом Фуркат начал в 12 лет, сначала посещая секцию боевого самбо, затем – рукопашного боя. Первую значимую победу одержал на чемпионате республики среди юниоров, заняв первое место. Это стало важным этапом в его спортивной карьере. После школы продолжил обучение в специализированном колледже олимпийского резерва, а затем окончил факультет физического воспитания Самаркандского государственного университета. С 2017 года Ф. Рузиев несет службу в органах внутренних дел.

– За каждой победой стоит колоссальный труд и многолетние тренировки. Ежедневно уделяю подготовке не менее четырех часов, – отметил Фуркат Рузиев. – Моя победа – еще одна ступень на пути к новым достижениям.

**Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.
Самаркандская область.**

 Аспект профилактики

ПОВЫШАЯ ПРАВОСОЗНАНИЕ

В рамках оперативно-профилактического мероприятия «Безопасная и здоровая страна» в городах и районах республики осуществляются комплексные меры, в том числе направленные на предупреждение правонарушений в семейно-бытовой сфере, среди молодежи и женщин.

– В махаллях Дустлик, Мустакиллик, Майдон состоялись профилактические беседы с лицами, состоящими на учете ОВД, а также с членами семей с нездоровой нравственно-психологической обстановкой, – отмечает инспектор по вопросам женщин ОПП ОВД города Ангrena майор Феруза Матибрагимова. – В махалле Оппартак пресечен факт раннего заключения брака, проведено разъяснение о последствиях. Проходят встречи школьников и их родителей с ответственными руководителями. В общеобразовательной школе № 13 в таком мероприятии приняли участие начальник ГОВД

подполковник Азимжон Мирходжаев, заместитель прокурора Азиз Аликулов, начальник отдела дошкольного и школьного образования Аъзам Гафуров. В центре внимания – вопросы повышения правосознания и правой культуры юношей и девушек, профилактики девиантного поведения. Кроме того, в махаллях Боботог, Гузал и Майдон прошли встречи жительниц с заместителем хокима города Мавлудой Абдурахмоновой. Озвучены социальные проблемы, волнующие жительниц, намечены меры по их разрешению.

**Соб. корр.
Ташкентская область.**



**ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДА ҚОЗОНИЛГАН
ФАЛАБАНИНГ 80 ЙИЛЛИГИГА**



ЖАСОРАТИ ЁШЛАРГА ИБРАТ

Иккинчи жаҳон уруши қатнашчилари ва фронт орти фахрийлари сафи тобора камайиб бормоқда. Ўша суронли йилларда жангоҳларда қаҳрамонлик кўрсатган, эсон-омон қайтиб келгач, умрининг охиригача эл-юрт равнақи йўлида меҳнат қилган инсонларни хотирлаш, уларнинг ибратли ҳаёт йўли ва қилган эзгу амалларини муносаб давом эттириш бугунги авлод учун муқаддас бурчdir.

Айни кучга тўлган, навқирон йигит ёшида фронтга жўнаганлардан бири Фарғона шаҳар Жўйдам қишлоғида туғилган Эминжон Ҳошимов эди. Юрт қаҳрамонининг ўғли истеъфодаги капитан Алижон Ҳошимов ўз отасини шундай хотирлади.

– Падари бузрукорим 1922 йилда туғилган бўлиб, меҳнат фаолиятини 9–10 ёшларида жамоа хўжалигига бошлаган. 1941 йил октябрь ойида ҳарбий хизматга чақирилиб, Фарғона шаҳрида тузиленган 94-ўқчи ўзбек бригадаси таркибида фронтга жўнаган. 1942 йилнинг март ойига қадар шу бригадада, кейин эса 249-ўқчи взводда командир ўринбосари сифатида жангларни давом эттиради.

Отам уруш хотираларини кўзда ёш ва хўрсиниш билан гапириб берарди. Унинг айтишича, 1945 йилнинг апрель ойигача фашистларга қарши жангларда иштирок этган. Икки марта жароҳат олиб, хушини йўқотган. Польшадаги Одер дарёсини кечиб ўтишда бомбалар ёмғири остида қолиб, оғир ахволда уйга қайтган.

Эминжон Ҳошимов урушдан сўнг соғлиғи тиклангач, бир муддат жамоа хўжалигига табелчилик қилади. 1951 йилдан 1982 йилга қадар Фарғона шаҳар ички ишлар бўлимида турли масъул лавозимларда хизмат қилиб, 1994 йилда пенсияга чиқди.



Турмуш ўртоғи, фронт орти фахрийси Қумриҳон Собирова билан ҳамжиҳатлиқда 10 нафар фарзандни эл корига ярайдиган инсонлар қилиб вояга етказишиган. Қ. Собирова ҳам 1994 йилда фронт орти фахрийси сифатида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонига асосан, «Шуҳрат» медали билан тақдирланган.

Эминжон Ҳошимовнинг ўғли Ҳусанбой ота изидан бориб, 30 йилга яқин Фарғона вилояти ИИБда турли масъул лавозимларда хизмат қилиб, 1994 йилда пенсияга чиқди.

Иккинчи жаҳон урушида иштирок этиб, қаҳрамонлик кўрсатган, қанча-қанча азоб-уқубатларни бошдан ўтказган бўлса-да, мағрур бошини эгмаган Эминжон Ҳошимов каби ўзбек ўғлонларининг порлоқ хотираси қалбимизда абадий яшайди.

**Абдувосит СИДИКОВ,
ўз муҳбиришимиз.**

Фарғона вилояти.

SOHA FIDOYISI

NIQOBLANGAN «SAHNA ASAR»LARI

yoki pardasi tez yirtiladigan «senariy»lar

– Tergovni hodisalarни јон-лантirish, tiklashga mengzaladigan sahnaga o'xshash mumkin. Gap shundaki, uning senariysini ayblanuvchi boshqacha ko'rsatishga urinadi. Tergovchini chalg'itishga, aybini niqoblashga harakat qiladi. Agar xodim sinchkov, zukko va bilimli bo'lса, bunday niqoblangan «to'qima asarlar senariysi» pardasini tezda yirtib tashlaydi, – deydi Sirdaryo viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi boshlig'ining o'rinnbosari, podpolkovnik Sherzod Pardayev.



Sherzod Pardayev Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida tug'ilgan. Maktabni tamomlagach, Toshkent davlat yuridik universitetiga hujjat topshirdi. Qariyb ikki yil davomida o'qishga kirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rgan Sherzodning talabalar safidan joy olgani to'g'risidagi xushxabar oliga bayram shukuhini olib kirdi.

Oliygojni tugatgach, lavhamiz qahramoni ichki ishlar organlarda ishlashga qaror qildi. Unga Toshkent shahar Yakkasaroy tumanini IIBga tergovchilikka yo'llanma berishdi. Ish hajmi nihoyatda katta edi. Ba'zan yurituvidagi jinoyat ishlari yigirmatagacha yetardi. Yosh tergovchi ustozlari ko'magida tinim bilmas, voqeja joyini ko'zdan kechirishga borar, ekspertiza tayinlar, guvohlar bilan uchrashar, aylov xulosasi tayyorlar, ishni sudga o'tkazish uchun yelib-yugurardi. Mana shunday tinimsiz ishlab, sohada «pishib yetildi».

2004-yilda kirakashlarga nisbatan bosqinchilik, talonchilik va o'g'rilik jinoyatlarini sodir etgan bir guruh yoshlarning jinoyat ishini o'rgandi. Endigina 18–20 yoshga kirgan uch yigit yo'lda taksi to'xtatib, xilvat joyga borgach, biri orqadan haydovchining bo'y-

niga pichoq tirab, qolganlari esa bor-budini olib ketavergan. Kirakashlar esa ishlab topgan pulidan ayrligach, IIBga murojaat qilishgan. 8 nafar kirakash arizasida epizodlar deyarli bir xil edi.

Arizachilardan bu hol qayerda ro'y bergani, to'xtagan manzillari so'raldi. Voqeа tunda sodir bo'l-gani uchun gumondorlarning yuzini eslab qolisholmagan bo'l-sada, bir amallab ularning taxmini fotoroboti yaratildi. Nihoyat, ikki oy deganda, ular jinoyat ustida qo'lga olindi.

IIV Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi hamda Toshkent shahar IIBB TQX JQBda xizmat qilib, yetarli tajriba to'plagan Sherzod Pardayev 2020–2024-yillarda IIV Jamoat xavfsizligi departamentida ishladi. Tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarni hayotga tatbiq etish, ya'ni respublika miqyosida jinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasi sxemasini amalga oshirishda bevosita ishtirok etdi. O'tgan yildan beri esa hozirgi lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

**Abdurahmon MUSTAFОQULOV,
o'z muxbirimiz.**
Sirdaryo viloyati.

ХОТИРА УЙГОНСА ГҮЗАЛДИР

«ЭЙ, ЖҮРАЛАР, ДИЙДОР ФАНИМАТ»,

– дер эди истеъфодаги майор Комилжон Садиров

Қўшработ тумани ИИБда хизмат қилган фахрийларнинг бу галги йигини истеъфодаги майор Норбўта Ҳакимовнинг уйида бўлди. «Дийдор фанимат» деб аталадиган мазкур учрашувда марҳум Комилжон Садиров ва бошқа ўтган барча ҳамкаслар хотирланиб, улар ҳақига дуо қилинди. Сўнгра хизматда биргалиқда ўтказган вақтларини, дуч келган оғир ва қалтис вазиятларни эслашиб, ўтмиш хотираларидан чақчаклашишиди.

Бир вақтлар Қўшработ тумани Ички ишлар бўлими бошлигининг шахсий таркиб билан ишлаш бўйича ўринбосари лавозимида хизмат қилган истеъфодаги майор Комилжон Садиров исмига монанд кенг феъл, тафаккурли инсон бўлиши билан бирга, ташаббускор, ташкилотчи, кўпнинг бошини қовуштирадиган, ҳар бир ходимнинг яхши-ёмон кунидаги ёнида туриб, қалбидан жой олган инсонлар сирасидан эди. Табиатан хушмуомала, одамохун, юзидан нур тарафувчи бу инсон катталарни ҳурмат, кичикларни иззат қилиб, маслаҳат сўраганга беминнат йўл-йўрик кўрсатарди. Қийналган кишини кўрса, кўлидан келган ёрдамини сира аямасди.

Дейлиқ, агар бирон киши физиллаб учайдиган вақт отининг жиловини бир пас тортиб, ўтмишини сарҳисоб қиласа ва ўзига «Хўш, мен бу ҳаётда яшаб нима қил-

дим? Кимлар билан қандай муносабатда бўлдим? Кимларнинг кўнглини олдиму кимларнинг дилини ранжитдим», деган саволларни берса. Албатта, жавоб қандай бўлиши ҳар кимнинг ўзига аён бўлади.

Аммо, шукрки, Комилжон Садиров ҳақида ҳамкаслари ва шогирдлари томонидан билдирилган фикрлардан, ҳеч иккиламасдан амин бўламизки, у кишидан дўстлари, ҳамкаслари ва фуқаролар миннатдор бўлган.

– Раҳматли Комилжон аканинг таниш-билишлари, дўсту ёрлари кўп эди. Жуда кўп одам сўраб келарди у кишини. Бундан ташқари, бўлимга мурожаат билан келганларни ҳам Комил акага дуч қиласар эдик. Чунки Комил ака келган одамни кўриши билан, унинг нима дардда келганини сезадиган эди. Шундай бўлса-да, шикоятчанинг гапини бўл-



Суратда: Комилжон Садиров (ўнгдан иккинчи) шогирдлари билан.

май, эринмай, дикқат билан эшитарди. Сўнг маслаҳат берарди. Йўл-йўриқ кўрсатарди. Хуллас, мурожаатчи иши битса-битмаса, кўнгли кўтарилиб, хушкайфиятда кетарди. Бир куни йиғлаб келган одамнинг унинг олдидан кулиб чиқиб кетганига ўзим гувоҳ бўлганман, – деб хотирлайди туман ИИБ Навбатчилик қисмидаги ишлаган истеъфодаги майор Абдураим Абдуллаев.

Дарҳақиқат, узоқ йиллар фидойилик билан хизмат қилган Комил Садиров ёш ходимларни тарбиялаб, кўплаб шогирдлар етиштирди. Уларнинг айримлари пенсияга чиқсан бўлса-да, аксарияти бугун ҳам жиноятчиликка қарши кураш,

унинг олдини олиш, жамоат тартибини сақлаш ва фуқаролар хавфсизлигини таъминлашдек масъулиятли ва шарафли ишларни амалга ошириб, элимизга сиддиқидан хизмат қилишмоқда.

– Очиқ гап, ички ишлар органига кирган кишининг бу соҳага бирдан киришиб, кўнишиб кетиши осон эмас, – дейди истеъфодаги майор Норбўта Ҳакимов. – Ўзига хос қатъий тартиби-интизом, чекланмаган иш режимига мослашишнинг ўзи бўлмайди. Шундай кезда Комилжон Садиров уларга анча бағрикенглик қиласарди. Кўнглига йўл топиб ёш ходимларда ишга кўнкима ҳосил бўлишига ёрдамлашар, қаттиқ режимга, тартиб-қоидага

мослаштириб, ўргатиб, кўнитириб оларди.

Яхши инсонларни, устозларни ёд этганда бирдан кўнгилга қувонч инади. Комил аканинг панд насиҳатлари, эзгу ишларини кўп эслаймиз. У киши «Эй жўралар, дийдор фанимат, кўришиб турайлик, учрашиб турайлик», – деган гапни кўп айтарди, деб эслайди шогирдлари.

Шундай кезда, дунёдан ўтган ҳамкасларимизни, гарчанд улар бугун сафимизда бўлмаса-да, худди ёнимизда тургандек сезамиз. Инсондан фарзандлар, боғ-роғлар билан бирга, бир тутам яхшиликлар қолар экан.

Комил ака билан Сайқал аядан 4 ўғил, 1 қиз қолди. Жамшидjon Навоий Кон-металлургия комбинатига қарашли 4-сон Гидрометаллургия заводида мутахассис, Дилшодбек Пайариқ туманидаги 35-сонли ўрта мактабда ўқитувчи, Бекзод ва Дилмуродлар эса Самарқанд шаҳридаги UCELL уяли алоқа компаниясида турли лавозимларда хизмат қилишмоқда. Қизи Манзура ўй бекаси.

**Улуғбек РЎЗИЕВ,
истеъфодаги капитан.**

ФИДОЙИ ХОДИМ

«ОМАД ФОРМУЛАСИ»НИНГ СИРИ

Ўз меҳнатидан ҳузурланиб яшаш инсонга куч-куват, ишонч ва шихоат бағишлиди. Лавҳамиз қаҳрамони – сержант Жаҳбар Баширов ҳаёти, фаолияти мисолида ҳам бунга яқъол амин бўлдик.

Самарқанд вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ Патруль-пост хизмати батальони ижтимоий-сиёсий, оммавий-маданий тадбирларни ўтказишда хавфсизликни таъминлаш отряди гурӯҳ командири ўринбосари, сержант Жаҳбар Баширов 23 йилдан бўён ички ишлар орнларида хизмат қилиб келади. Фидокорлиги ва ташаббускорлиги боис раҳбарият томонидан бир неча бор рағбатлантирилган.

Ҳаёт қора ранглардан иборат эмас. Ёмғирдан сўнг камалак чиқади. Мусибатлар қаршиисида ожиз қолдингизми, руҳан тушкунликка тушманг. Матонат билан ҳаёт қийинчиликларни енгиги ўтинг. Олға интилган инсон, албатта, муродига етади. Бу сўзлар Жаҳбар Башировнинг шиорига айланган. У ўз устида ишлашдан, билим ва тажрибасини бойитишдан эринмайди. Ҳамкаслари билан соҳага доир мавзуларда сұхбатлашади, ўзаро

фикр алмасиб, билмаганларини ўрганиб, ўзида борини ёшларга улашади.

– Ҳамкасбим ўз ишига талабчан, – дейди сафдор Жамшид Нурматов.

– Жамоада ўз ўрни бор, дўстларига ёрдам беришга тайёр. Қийинчиликлардан чўчимаслигини, барчага бирдек муомалада бўлишини алоҳида айтиш жоиз.

Жаҳбар Баширов турмуш ўртоғи Марғубаҳон билан 4 нафар ўғилни тарбияламоқда. Қай пайтда уйга келса-да, фарзандлари билан уларнинг келажакдаги мақсадлари хусусида сұхбатлашишга вақт топади. Тўнғич ўғли Иброҳимбек Самарқанд шаҳридаги Президент мактабида ўқииди. У яқинда хориждаги 27 та университетда таълим олиш учун грант ютиб олди.

– Фарзандларимнинг ўқишига нисбатан жуда қаттиқўлман, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Уларнинг яхши билим олиши учун ўзим ҳам



кўп нарсани ўқиб ўрганаман. Чунки менга савол бериб қолишиша, уларга тўғри жавоб беришим керак. Фарзандимнинг бу ютуғи оиласизни, айниқса, ота-онамни жуда севинтириди, шахсан менга башқача куч беради.

Ҳа, ўз касбига масъулият, бурчга садоқатни бир зум ҳам унутмайдиган сержант Жаҳбар Баширов

хизматида ўз ўрнини топиш билан бирга, оила баҳтини, фарзандлари иқболини муҳим деб билади. Режа тузиш, вақтни бекорга сарф қилмаслик, интизомли бўлиш ва тўғри қарор қабул қилиш унинг «омад формуласи»дир.

Умидда МАМАДАЛИЕВА.



OILA – MUQADDAS DARGOH

Oila – mehr va baxt qo'rg'oni. Oila bor ekan, farzand degan bebahon ne'mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma'naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug' saodatdir.

Shavkat MIRZIYOYEV

Oila – ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzlusizligini ta'minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon. Oilani jamiyatning kichik bir parchasiga qiyoslash mumkin. U jamiyatning muqaddas, asosiysi, tarbiya maskani hamdir.

1993-yil 20-sentabrda Bir-lashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining «Xalqaro oila yili to'g'risida»gi rezolyutsiyasi qabul qilingan. Ushbu xalqaro hujjatga muvofiq, 1994-yildan boshlab 15-may – Xalqaro oila kuni sifatida dunyoning deyarli barcha davlatlarida keng nishonlab kelinadi.

Ushbu sanani nishonlashdan asosiy maqsad oilalar bilan bog'-liq muammoli masalalarga davlat va jamoatchilik e'tiborini qaratish, oilalar ahvoliga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jaryonlar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishdan iborat. Zero, oiladagi ma'naviy muhit, sog'lom kayfiyat, barqarorlik jamiyat hayotining asosini ta'minlovchi kuchdir.

Har tomonlama sog'lom oila jamiyatning boyligi va Vatan ravnaqining asosi hisoblanganligi uchun oilaviy qadriyatlarini saqlash, tarbiyaviy salohiyatni mustahkamlash, ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi har davrda ham eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan.

Xususan, Amir Temur davrida ham oilalarga alohida e'tibor qaratilgan. Buyuk sohibqiron haqida

saqlash, mamlakat hududini kenqaytirish va obodonlashtirish bilan o'tgan, degan xulosaga kelamiz. Lekin Amir Temur davrida ham «Oilaga e'tibor – davlatga e'tibor» tamoyili ustuvor bo'lgan, desak, hech mubolag'a bo'lmaydi.

«Temur tuzuklari» asarida biltishicha, u oila masalasiga, farzandlar tarbiyasi va kelajagiga alohida e'tibor berganligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, ushbu asarda oila qurish, farzandlarni uylantirish va kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: «**O'g'llarim, nabiralarim va yaqinlarimni uy-lantirmoq tashvishida kelin izla-moqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'lilik-salomatligrini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabasi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushirdim.**

Bugungi kunda ham mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida oila manfaatini himoya qilish, uning jamiyatdagi mavqeysi va maqomini yanada yuk-

bo'g'ini bo'lgan oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish bo'yicha muayan ishlar qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya-da ham oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u jamiyat va davlat muhofazasida ekanligini, davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi mustahkamlab qo'yilgani mamlakatimizda oila institutini mustahkamlashga



IV tomonidan ham oilalar mustahkamligini ta'minlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, ichki ishlar organlari tarkibida yangi tashkil qilingan xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda boshqa tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni aniqlash va ularning manzilli ro'y-xatlarini tuzish, ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va milliy mentalitetga zid bo'lgan turli xavf-xatarlarga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni olib bormoqda.

Birgina mamlakatimizda joriy etilgan «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» kabi ijtimoiy loyihibar alohida ehtiyojli oilalarni qo'llab-quvvatlash, salomatligini mustahkamlash, mavjud muammolarini bartaraf etish imkonini berayotir.

Keyingi yillarda yosh oilalar uchun qurilayotgan uy-joylar, uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ham oila institutiga bo'lgan yuksak e'tiborning amaliy ifodasidir.


«O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. Shu maqsadda, avvalo, milliy qonunchiligimiz takomillashtirilib, keng imkoniyatlar yaratilayotir.

qay darajada katta e'tibor qarati- layotganini anglatadi.

Yana shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlari o'zaro oila qurib, qo'shganot bo'lib, bir sohada yelkama-yelka faoliyat yuritib kelayotgan xodimlar ham talaygina. Shuningdek, **tizim xodimlari o'rtasida har yili «Sog'lom oila – sog'lom jamiyat» g'oyasini keng targ'ib etish maqsadida «Namunali oila» ko'rik-tanlovi yuksak saviyada o'tkazib kelinadi.** Aytish joizki, ayni kunlarda amalga oshirilayotgan bu loyihibar oilaviy qadriyat va an'analarni targ'ib qilish, Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat tuyg'ularini yuksaltirish, kitobxonlik madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Istagimiz, har bir oila ma'naviy sog'lom, baxtli va xotirjam hayot kechirsin. Oila bag'rida ulg'ayayotgan farzandlar komil inson sifatida voyaga yetib, davlatimizning kuchiga kuch, qudratiga qudrat qo'shaversin. Zero, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekan, uning mustahkam bo'lishi, farovonligi davlatimiz va jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qilishi shubhasizdir.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.



Maqolani
qoraqalpoq tilida
o'qish uchun
QR-kodni skaner
qiling.



bizga qoldirilgan meroslardan, u haqdagi tarixiy asarlardan va kinofilmlardan olgan taassurotlarimizga tayanib, uning umri faqat jang-u jadallar, dunyoda tinchlikni

saltirish, yosh oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatimizda jamiyatning muhim



СЕМЬЯ – СВЯЩЕННАЯ ОБИТЕЛЬ

В Узбекистане семья – основная ячейка общества, священная обитель, где бережно хранят традиции, из поколения в поколение передают духовные ценности. Глубоко укоренены здесь почитание старших и забота о младших. Именно в семье дети постигают ответственность, сплоченность и взаимопомощь.

Укреплению института семьи в нашей стране уделяется особое внимание. Статья 76 Основного закона гласит: «...Государство создает социальные, экономические, правовые и другие условия для полноценного развития семьи».

Традиционной узбекской семье присуща высо-

великий Алишер Навои в произведении «Смятение праведных»:

**Главу свою перед отцом склоняй,
А сердце матери своей отдай...
Пускай отец – Луна и Солнце – мать
Тебе дорогу будут озарять.**



кая организация внутреннего уклада. Для республики характерны семьи, где совместно ведут хозяйство несколько поколений, что соответствует менталитету, создает благоприятные условия для воспитания детей. Большая и крепкая семья – оплот общества и государства.

Согласно статистическим данным, в Узбекистане преобладают семьи, состоящие из 6 и более человек (39,4%). Определяющим принципом внутрисемейных отношений является авторитет старшего поколения, осуществляющего духовное руководство. Мнение старших в принятии важнейших решений приоритетно. Проявление к ним почитания выражается не только в обращении на «Вы», но и в правилах поведения и этикета, созвучных наставлениям, изложенным еще в XI веке Кайковусом в «Кабус-наме».

О безграничном почитании родителей писал и

**Великим уваженье быть должно
К тому, кем благо жизни нам дано.**

Народная мудрость гласит: «Человек крепче стали и нежнее цветка». Эти слова в полной мере можно отнести и к семье. Беречь семью – значит ограждать ее от угроз внешней среды, ведь только в устойчивых и нравственно здоровых семьях дети могут расти любимыми и сами дарить любовь, всесторонне развиваясь.

Для узбекской семьи разделение функций и обязанностей между ее членами – выверенная веками традиция. Это позволяет воспитывать у подрастающего поколения трудолюбие, формировать чувство ответственности. Не случайно говорят: «Птица делает то, что видела в гнезде».

В узбекской семье присутствует уникальная культура общения.



О важности воспитания в детях непререкаемого уважения к родителям строки:

**Жалей дитя, оберегай от бед,
Но в нежности чрезмерной – явный вред.
Святое уважение к своим
Родителям пускай владеет им.**

Описание традиционного этикета и учтивости дал в романе «Минувшие дни» выдающийся писатель Абдулла Кадыри. Обращения в письмах героя романа Отабека к супруге достойны восхищения: «Луноликой жене моей, чернобровой возлюбленной моей, госпоже Кумуш!»; «...Звезде моих надежд, цветку моих желаний, опоре моей жизни, моей



Кумуш!». Они наполнены глубоким уважением и поэтичностью.

В Узбекистане институт махалли играет значимую роль в жизни общества. Действующие при органах самоуправления советы старейшин объединяют жителей, способных выступать в роли мудрых советчиков для молодых семей. Под их руководством организуются мероприятия по повышению правовой культуры махаллинцев, пропаганде здорового образа жизни, укреплению духовно-нравственных ценностей семей.

Движение «Оқила аёллар» также способствует укреплению института семьи, выполняя задачи, связанные повышением

году 208 из них были удостоены нагрудного знака «Ибратли оила» («Образцовая семья»), – отметил Президент Шавкат Мирзиёев. – Так, всем известна семья Кузибаевых из Ташлакского района. Мукаддамхон-опа 35 лет своей жизни посвятила образованию и воспитанию молодого поколения. Вместе с супругом она создала фермерское хозяйство, обеспечила доходной работой около 50 семей в районе... Эта семья взяла шефство над более 30 нуждающимися семьями, проявляя заботу об их детях, оказывая содействие в получении ими образования, профессии».

В республике стало добродой традицией проведение конкурса «Образцовая семья». Такой конкурс ежегодно организуется в системе органов внутренних дел. Он направлен на пропаганду семейных отношений, основанных на взаимном уважении и согласии, акцентирование обюджной роли супружеской пары в воспитании детей и их подготовке к самостоятельной жизни, а также на демонстрацию обществу положительного образа сотрудника ОВД. Данный конкурс – важный инструмент в реализации государственной политики по повышению духовно-нравственной культуры, формированию позитивного имиджа сотрудников правоохранительных органов.

Семья играет фундаментальную роль в становлении каждого человека. Бережное отношение к семейным ценностям и их укрепление – залог счастливого общества, стабильности и процветания нации.

Радик ТУМПАРОВ,
кандидат
педагогических наук.



Ҳаётжон ШАРИПОВ:

БУНИ ЭСЛАШ ОФИР, ҚОНЛИ КУРАШЛАРГА ТАРИХ ГУВОХ



Бутун жаҳонда бўлгани каби, мамлакатимиизда ҳам касабачилик ҳаракатининг вужудга келиши ва кенг ёйилиши ўзига хос тарихга эга. Бу тузилма чор ҳукумати босими остида эзилган ўлка ишчи-хизматчиларининг ҳақ-хукуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш борасида ягона нажот омили вазифасини ўтаганлиги ҳам ҳеч кимга сир эмас. Бу йил касаба уюшмалари ташкил этилганлигига 120 йил тўлади. Шу муносабат билан Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерацияси раиси маслаҳатчisi Ҳаётжон ШАРИПОВга касаба уюшмалари тарихига оид ўзимизни қизиқтирган баъзи саволлар билан юзландик.

– Ҳаётжон Сафарович, сұхбатимизни дунёда илк касаба уюшмалари пайдо бўлишига оид қизиқарли маълумотларни келтириб ўтишдан бошласак, нима дейсиз?

– Бажонидил. Илк касаба уюшмалари пайдо бўлишига доир далилларга тўхтадиган бўлсак, тарихий манбаларга кўра, ишчи-ходимларнинг илк касаба уюшмалари XVIII асрнинг иккичи ярмида тузилган. Аникрофи, 1792 йилда Англиянинг Ланкастер шаҳридаги ип-йигирув фабрикасида илк касаба уюшмасига тамал тоши куйилган эди. Аср охирлари-га бориб, уюшма фаолияти таъқиқланган бўлсада, 1824 йилдан бу таъкиқ барibir бекор қилинди ва унинг фаолияти барча завод ва фабрикаларда кенг тарқала бошлади. 1868 йили Англияда касаба уюшмалари конгресси, 1869 йилда Америкада «Мехнат рицарлари» номли касаба уюшмаси каби йирик тузилмалар ташкил топди.

Жаҳонда бундай тузилмалар шаклланишига, аввало, ишчи-хизматчилар ўз ҳақ-хукуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ниятида турли йигин, тўгарак, ширкат ва уюшма-



ларга бирлашганликлари замин яратган. Масалан, 1860 йилларда ёқ Германияда ишчиларнинг социал-демократлар уюшмалари, христиан ишчилар уюшмалари, буржуа тараққий партияси намояндлари М.Гирш ва Ф.Дункер асос соглган Гирш-Дункерчилар уюшмалари мавжуд бўлган.

– Түркистонда бу жарён қандай кечган?

– Туркистонда ҳам касаба уюшмалари пайдо бўлишидан олдин ишчи-хизматчилар турли тўгарак, йигин ва уюшмаларга бирлаша бошлаганди. Таҳлиллар 1905–1907 йилларда ҳозирги Ўзбекис-

тон ҳудудида, ҳақиқатан ҳам, касаба уюшмалари фаолият юритганидан далолат беради. Олдингиларинингномида «касаба» сўзи мавжуд бўлмаса-да, улар табиати ва хусусиятига кўра, ишчи-хизматчилар томонидан ўз иқтисодий ва касбий манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида тузилгани, иш берувчи ва ходимлар ўртасидаги муносабатларни тартибга солиш масалалари билан шуғуллангани боис бошқа мамлакатлардаги ҳозирги касаба уюшмаларига тўла-тўқис мос келади.

Тарихий манбаларда битилишича, Туркистонда би-

ринчи норасмий тўгараклар 1903 йили Тошкентда, келаси йил Самарқандда пайдо бўлган. Умуман олганда, 1905 йил кузида Тошкентда ишчиларнинг 15 та тўгараги фаолият юритган.

– «Темирийўлчилар жонбозлиги» деган ибора юради. Бу касаба уюшмаларига алоқадорми?

– Алоқадор, албатта. Негаки, Туркистон ўлкасида илк касаба уюшмаларининг дунёга келиши Ўрта Осиё ва Оренбург-Тошкент темирийўл тармоғининг қурилиши билан боғлиқ. 1905 йил кузида Бутунrossия темирийўл уюшмасининг Туркистон бўлими ташкил этилган. Орадан тўрт-беш ой ўтар-ўтмас, у Ўрта Осиё ва Оренбург-Тошкент темирийўлларининг 8 минг нафар ишчи-ходимини ўз сафига қамраб олган.

Аслида Туркистон ҳудудига темирийўллар анча олдин кириб келган. 1880 йили Каспийорти темирийўлини барпо этиш бошланиб, 1885 йилда у Ашҳо-



бодга, 1886 йилда Чоржўйга, 1888 йил кўклами ниҳоясида Чоржўдан Амударё кўприги орқали Самарқандга уланган. 1888–1900 йилларда Красноводск-Тошкент, Черніево-Андижон линиялари курилган. Бироқ бу ишлар ҳарбий қисмлар аскарлари томонидан бажарилган. Бинобарин, шу даврга қадар амалга оширилган темирийўллар қурилишида ишчи-хизматчилар иштирок этишмаган ва уларнинг уюшмалари бўлмаган.

Ўлкамиздаги илк касаба уюшмалари узоқ давом этган иш ташлашлар, ноқулай меҳнат шароитлари ҳамда ишчи-ходимларнинг иқтисодий ҳукуқ ва манфаатлари оёқости қилиниши билан боғлиқ норозиликлари оқибатида юзага келган. Айни чоғда, бу меҳнаткашлар ўз ҳақ-хукуқлари ва қонуний манфаатлари учун курашганини англатади. Хусусан, улар маошлари ўз муддатида берилмаганидан, ҳақ тўланмайдиган ва иш вақтидан ташқари қўшимча ёки байрам кунларида меҳнатга жалб этилишларидан норози бўлишган. Ўз шартлари бажарилишини талаб қилган ҳолда, вақти-вақти билан заводда ва темирийўл обьектларида ишни тўхтатиб қўйишган. Масалан, 1905 йил февралида Ўрта Осиё темирийўлларининг Тошкентдаги бош устахонасида йирик иш ташлаш уюширилган. У Фарғона



водийсида ҳам худди шундай кўтарилишлар содир бўлишига доялик қилган. Бу янглиғ қалтис ҳаракатлар ва уларнинг оқибат-натижалари ҳафталик газеталарда ёритиб борилган.

– Бунга сизда етарли далиллар борми, манбалар қанчалик ўрганилган?

– Воеалар, тарихий асослар кўп. Жумладан, «Туркестанские ведомости» хабарига қараганда, 1905 йил февралидаги Оренбург-Тошкент темирйўлининг тахминан 400, Ўрта Осиё темирйўли Тошкент бош устахоналарининг қарийб 800 ишчиси ўз ишларини тўхтатиб, раҳбарият олдига бир қатор талабларни кўйишган.

Шубҳасиз, зуваласи илфор гоялар билан йўғрилган талаблар Туркистон ўлкасида касаба уюшмалари расман тузилишидан олдин ишчи-хизматчилар онгу тафаккурида пишиб етилганидан далолат беради. Уларнинг айримлари қаноатлантирилгани боис тез орада темирйўчилар иш ташлашларни тугатишида ва фаолиятларини яна давом эттиришади. Лекин шу билан ҳаммаси тўхтаб қолмайди...

– Ишчилар бош кўтариши давом этган демократик мисиз?

– 1905 йил 14 октябрда Туркистон темирйўлари нинг ишчи ва хизматчилари яна бош кўтаришади. Уларга бошқа корхоналар ишчилари, темирйўл батальони аскарлари, ҳатто Амударё флотилияси матрослари ҳам кўшилиб, иш ташлайдилар. Чор ҳукумати эса 19 октябрда намойишчиларни ёппасига ўқса тутади. Бу қирғинбаротда ҳалок бўлганларни дағн этиш маросимлари ҳалқ ғазабини қайтадан кўзғаб, уларни тағин кўчага чорлайди. 15–16 ноябрда тақороран кўзғолонлар ва намойишлар бўлади. Таассуфки, улар ҳам меҳнаткашлар вакилларини

отиш билан якунланади.

13–20 декабрь кунлари Ўрта Осиё темирйўллари ишчи ва хизматчиларининг 1-Қурултойи ўтказилади. Унда келаётган январь ойидан эътиборан 8 соатлик иш кунини белгилаш тўғрисида қарор қабул қилинади.

1906 йилнинг 1 июнида эса Тошкентда Ўрта Осиё ва Оренбург-Тошкент темирйўлчиларининг биринчи Туркистон бирлашган Қурултойи бўлади ва Темирйўчилар касаба уюшмасининг Устави маъқулланади. Ўша ҳужжат айни кезларда Ўзбекистон касаба уюшмалари тарихи музейида сақланмоқда. Бир сўз билан айтганда, бу кунларга етиб келиш осон кечмаган. Буни эслаш оғир, қонли курашларга эса тарих гувоҳ.

– Хайрли ташаббусларда жадид боболаримизнинг роли ҳақида икки оғиз...

Шубҳасиз, уларнинг ўрни бекиёс. Ўша даврда Маҳмудхўжа Беҳбудий, Мунавварқори Абдурашидхонов, Абдулла Авлоний, Исҳоқхон Ибрат, Абдурауф Фитрат, Абдулла Қодирий, Абдулҳамид Чўлпон, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий сингари маърифатпарвар жадидларимиз

ўз шахсий манфаатлари, ҳузур-ҳаловатларидан воз кечиб, эл-улус озодлиги, юрт тараққиёти ўлида амалга оширган ишлари орқали ўз даври учун прогрессив бўлган фояларни шикоат билан кўтариб, бу фояларни халқимизга етказа олганликлари билан муҳим аҳамият касб этади.

Машҳур ёзувчимиз, жадидлар ҳаракатининг намояндаларидан бири Абдулла Қодирий Тошкентнинг Эски шаҳар қисмида косиб, ҳунарманд ва ишсизларни жалб этган ҳолда ширкат тузиб, касаба уюшмаларига бирлаштиргани ҳақида ишончли маълумотлар бор. «1920 йилда Касабалар шўросига саркотиб бўлиб ишга кирдим ва Эски шаҳар касабачилик ҳаракати тўғрисида газеталарда мақолалар ёзиб турдим», – деб ёзади Қодирий.

Бундан ташқари, улуғ маърифатпарвар, давлат ва жамоат арбоби Абдулла Авлоний ушбу жараёнларнинг иштирокчисигина эмас, балки фаол етакчиларидан биридир. Биз учун дикқатга сазовор жиҳат шундаки, етук аждодларимиз вакили бўлмиш ул зот касаба уюшмалари ҳаракатига нафақат хайриҳоҳлик билан қараган,

Салкам 120 йиллик тарихга эга Ўзбекистон касаба уюшмалари фаолияти давомида юксалиш ва пасайиш даврлари ҳам юз берган, лекин бу ташкилот ҳеч қачон ўз долзарблигини йўқотмаган.

**Шавкат МИРЗИЁЕВ,
Ўзбекистон Республикаси Президенти.**

балки ўзи ҳам унинг фаолиятида жонбозлик кўрсатган эди. Абдулла Авлоний маърифатли, тараққиётарвеш шахс сифатида дунёда юз бераётган ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар ва улар натижасида пайдо бўлаётган янги давлат ҳамда жамоат институтларининг роли ва вазифаларини тўғри баҳолай биларди. У Туркистон ўлкаси Касаба уюшмалари шўроси томонидан нашр этилган «Касабачилик ҳаракати» ижтимоий-сиёсий-иқтисодий журналига раҳбар этиб тайинланади. Журнал икки ҳафтада ўзбек ва рус тилларида чоп этиларди. Катта тажриба ва юқори даражадаги илм-у салоҳиятга эга Абдулла Авлоний масъул муҳаррир вазифасини ҳам аъло даражада бажарди. У қайси вазифада ишламасин илм-маърифат тарқатиш, таълим-тарбия масалалари билан шуғулланиб, жамиятга катта наф келтирди.

– Бугунги кунда Ички ишлар вазирилиги ҳамда Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерацияси ўзаро ҳамкорликда изчил лойиҳаларни амалга ошириб келмоқда. Бу, ўз навбатида, ходимларга нима беради?

– Хурматли Президентимиз ташаббуси билан инсон манфаатлари ўлида кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Инсон қадрини улуғлаш, унинг қонуний манфаатларини таъминлаш мақсадида олиб борилаётган изчил ислоҳотларда ка-

саба уюшмалари ҳам фаол иштирок этмоқда.

Аҳоли тинчлиги ва осоишишалигини ҳимоя қилаётган ички ишлар органлари ходимларининг жиноятчиликка қарши кураш, унинг олдини олиш, жамоат тартибини сақлаш, фуқаролар хавфисизлигини таъминлаш борасидаги мashaқатли хизматлари доимо эътироф этиб келинади. Айни пайтда тизимда амалга оширилаётган ислоҳотлар соҳа ходимларини халқимизга янада яқинлаштиromoқда. Аввало, касаба уюшмасига аъзо бўлган ички ишлар ходимининг нафақат ўзи, балки оила аъзолари ҳам дам олишлари учун қатор имтиёзли йўлланмаларга эга бўлади. Ушбу йўлланмалар орқали Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерацияси тизимидағи санаторийларда даволаниб, саломатлигини мустаҳкамлаш имконига эга. Шунингдек, сўлим гўшаларда жойлашган болалар соғломлаштириш оромгоҳлари, бир канча дам олиш масканлари ва даволаш муассасаларида ички ишлар органлари ходимлари ва уларнинг оила аъзолари ҳордик чиқариши мумкин.

Ҳар йили умумхалқ байрамлари муносабати билан маданий-маърифий ва спорт-соғломлаштириш тадбирлари ташкил этилади. Ходимлар спарта-киадалар, турли оиласидан мусобақаларда қатнашиб, вақтини мазмунли ўтказиши билан бирга, саломатлигини мустаҳкамлаб боради. Бундан ташқари, молиявий қийинчиликлар юзага келгандага касаба уюшма аъзоларига тизимли моддий ёрдам кўрсатилади. Узоқ йиллар ички ишлар органларида хизмат қилган фахрийларга, хизмат вақтида ҳалок бўлган ходимларнинг оилаларига доимий ғамхўрлик кўрсатиш, фарзандлари учун ўқув қуроллари харид қилиш, тарихий шаҳарларимизга саёҳатини уюштириш ҳам тармоқ келишуви билан мустаҳкамлаб кўйилган.

– Мазмунли суҳбатингиз учун ташаккур.

**Аброр ПОЁНОВ
суҳбатлашди.**





«POSTDA-НА ПОСТУ» – МЕНИНГ ТАҚДИРИМДА» ТАНЛОВИГА

ҚАСАМЁДДАЙ ЖАРАНГЛАГАН ГАЗЕТА

Мен ички ишлар органлари капитаниман. Ўтган йиллар давомида ҳаётимда кўп нарса ўзгарди: иш жойлари, формалар, шаҳарлар, унвонлар. Аммо бир нарса – севимли газетамиз – «Postda-На посту» доим ёнимда бўлди. У хизматим бошидан то ҳозирги кунгача мен билан бирга. У шунчаки, навбатчилик хонасининг бурчагида ётмайди, балки онгимда унвонларимни нима учун олганимни эслатиб тургандек жаранглайди.

«Postda-На посту»ни биринчи марта курсантлик даврида ўқиганман. У қандайдир улуғвор, етук нарсага ўхшарди – бақирмайдиган, аммо сўзига қулоқ солинадиган тажрибали қўмондоннинг овозидек эди. Кейинчалик, ҳақиқий хизмат бошланганида – ўзига хос ташвишлар, ўйқусиз тунлар, мураккаб қарорлар билан ҳамкасларим бу нашрни нима учун қадрлашларини тушундим. У сенинг кимлигингни ҳеч қачон унумтайди. Ҳақиқатни яширмайди. Ва ҳар доим ёлғиз эмаслигингни ҳис қилдиради.

«Postda-На посту» – нашрдан кўра кўпроқ нарса. Унинг ҳар бир сони умумий тарихимизнинг бир саҳифаси. Бу ерда профилактика инспекторининг кундалик ҳаёти ҳам, патруль-пост хизмати ходимларининг жасорати ҳам, фахрийларнинг хотиралари ҳам бор. Бу ерда китоблардаги қаҳрамонлар ҳақида эмас, балки ёмғирда, қорда, ўқ остида, бошқалар уйда ўтирганида хизмат вазифасини бажараётгандар ҳақида ёзишади.

У шунчаки эслаб ўтмайди. Ходимнинг ҳис-туйгуларини, оила аъзоларининг фикрларини, болаларининг у ҳақдаги гапларини етказади. Бу шунчаки хабар бериш эмас, балки ҳурмат кўрсатиш рамзи. Оилам бу нашрнинг ҳар бир сонини интиқли билан кутади. Тұрмуш ўртогим ҳар доим газетага кўз юргутиради. Айниқса, ходимларнинг ижтимоий ҳимояси тўғрисидаги мақолаларга. Ҳатто ўғлим гоҳ-гоҳида: «Дада, сиз ҳақингизда ҳам ёзишадими?» деб сўраб қолади. Мен жилмайиб қўяман. Лекин ичимда шу лаҳзаларда бир ҳис кечади: «Кун келиб ёзишади!»

Бугун газетанинг адади бир неча ўн минглаб нусхада чоп этилмоқда. У ташқи кўринишдан ўзгарди, замонавийлашди, ранг-баранг бўлди. Лекин энг мухим нарсани – ўқувчига бўлган ҳурматни сақлаб қолди. Унда ҳикоялар, очерклар, ҳатто ҳамкасларимизнинг бадиий ишланмалари ҳам чоп этилади. Буларнинг барчаси шунчаки ижод эмас. Бу – хизмат. Бу қофзода мундир шаънини сақлаб қолишидир.



Мен учун газета касбий мактаб ролини ҳам ўйнади. Нашр туфайли соҳадаги анъаналар, сафда, ёнимда турган одамлар ҳақида кўп нарсаларни англадим. Овоз чиқариб сўрашга уялган саволларимга ундан жавоб топардим. У туфайли ёзишни ўргандим – аввал қисқа хабарлар, кейин навбатчилик амалиётидан кичик лавҳалар...

Бирлашган таҳририятдан миннатдорман. Қылаётган эзгу ишлари учун. Ҳақиқатга содиқлик учун. Ҳалоллик ва самимилик учун. Хизмат ҳақида ғурур билан, аммо дабдабасиз гапира олгани учун.

Бугун газетанинг 95 йиллиги арафасида айтмоқчиманки, «Postda-На посту» – бу қасамёдимизнинг бир қисми. Норасмий, лекин жуда шахсий. У ҳар биримизнинг қалбимизда жаранглайди. Севимли нашримизнинг умри узоқ бўлсин. У бундан бўён ҳам навбатчилик қисмидаги ҳам, уй сукунатида ҳам қулоқ солинадиган овоз бўлиб қолсин. У бунга лойиқ – постда тургандарнинг барчаси сингари.


**Азамат АҲМАТОВ,
ИИВ Транспорт ва туризм
объектларида хавфсизликни
таъминлаш департаменти
Ахборот хизмати бош
мутахассиси, капитан.**



ҮҚИШНИ ТАВСИЯ ҚИЛАМАН

«ЯХШИЯМ, СЕН БОРСАН»

Мен Чилонзор тумани ИИОФМБ 2-сонли ИИБ ҲПБ инспектори лавозимида хизмат қиласман. Болали-гимдан китобларни севиб мутолаа қиласман. Бу одат ҳамон мени тарқ этгани йўқ. Иш столимда доим бирор адабиёт туради. Яхши асарларни бошқаларга ҳам илинаман. Ўқишлиарни тавсия қиласман. Ҳамкасларим бу одатимни яхши билишади. Тизимда ўтказиб келинадиган китобхонлик танловларида фаол иштирок этаман.



Маълумки бирор китоб ўқиган киши, анчагача унинг таъсирида юради. Менда ҳам худди шундай бўлади. Ёзувчи Улуғбек Ҳамдам асарларини шунчаки ўқиш мумкин эмас, чунки ҳар битта жумла – ребус, ортида бир дунё фикр ётади. Уларни тушуниб етиш учун ҳар бир жумланинг қалитини топишга, мағзини чақишига тўғри келади. Акс ҳолда, қоникиш ҳиссини тўймайсиз. Асарларни тушуниш йўлида ўқувчидан нафақат кенг дунёқараш, тафаккур, балки ғайриоддий қарашга ҳам эга бўлиш талаб этилади. Ижодкорнинг «Яхшиям, сен борсан» ҳикояси ҳам ана шундай маҳорат билан ёзилган.

Дунё одамзодни бозор каби алдайди, алданади, ўғирлайди, ўғирлатади, олади, беради, сотади, сотиб олади... Бозорга кириб қолган киши вақт ўтганини билмай қолади. Кирishга киради-ю, чиқиси келмайди. Кезган сари кезгиси, айлангиси, имкони бўлса, қолгиси кела-веради. Ҳикоя қаҳрамонлари Юсуф ва Зулайҳо ҳам кириш бор-у, чиқиш йўқ «бозор» чангалига тушиб қолади...

Асарда айтилаётган бозор чиндан ҳам дунё рамзи. Бозорга кирдикми, яъни дунёга келдикми, расталарни айланамиз, турфа хил нарса-буюмларни, яхшиёмон одамларни кўрамиз. Икки севишган каби уларнинг жим-жимасига алданамиз. Оқибатда чиқиш йўлини излаётганимизни, асл мақсадимиз нима эканини буткул унумтади.

Асар қаҳрамони Зулайҳо бекорга зеб-зийнат, Юсуф эса бошқарманинг қутқусига учмади. Аёл киши чиройли ялтири-юлтур нарсага, асосан тилла буюмларга ўч бўлади. Бундай нарсага ҳавасланмайдиган, кўзи кўймайдиган аёл бўлмаса керак. Эркаклар эса бошқарувга, юксак мавқега, курдатга ишқибоз. Эркакни айни шу омиллар билан маҳлиё қилиш осон эди. Шу сабабдан ҳам йигит ва қизни йўлдан оздириш учун айни шу нарсалар йўлиқтирилди.

Инсон яшашда давом этаркан, у турли синов-имтиҳонларга дуч келади. Ёнида ақлли ва доно, бирозгина жасоратли яқин

инсони бўлса, бундай синовлардан ўтиши осон кечади. Юсуф ва Зулайҳо бир-бири учун ана шундай инсон ва-зифасини ўтади.

Ҳикоядаги чиқиш йўли қабристон орқали ўтилиши ҳам бежиз эмас. Инсон бу дунё ғалваларидан вафотидан сўнг кутулади. Фақат қандай виждан билан, қандай яхши-ёмон амаллар билан чиқиб кета олиши унинг танловига боғлиқ. Зулайҳо ўткини ҳавасларга берилиб, Юсуф кибр-хавога йўлиқиб қолишлари ҳам мумкин эди. Аммо иккиси ҳам бир-бирига кўлдош бўлиб бундай хавфдан кутулиб қолади ва тоза виждан билан ўз йўлларини топиб боради...

Китобдан олган таассуратларим бир олам. Энг асосийси, нима бўлганда ҳам, нима бизни йўлдан чалғитса ҳам, мақсадимиздан қайтмаслигимиз, йўлимизни йўқотмаслигимиз жуда муҳимлигини янайам теранроқ англаш етдим.

**Диёра РАИМОВА,
лейтенант.
Тошкент шаҳри.**

★ В преддверии 95-летия
**ПРЕДАННОСТЬ
ДЕЛУ**



Всегда улыбчивая, веселая, никогда не унывающая Елена Кузнецова была душой дружного коллектива, ставшего одной большой семьей. Журналист высокого профессионального уровня, с уникальным опытом работы, широчайшим кругозором и неизменно позитивной точкой зрения на мир писала для читателей настолько захватывающие материалы, что восторженных отзывов и благодарностей в

ее адрес было не счесть. Ее статьи и очерки о блюстителях правопорядка, репортажи с мест событий были узнаваемы по особому авторскому стилю. Мастер профессии Е. Кузнецова, проработавшая немало и в других изданиях, привнесла в редакцию особый дух творчества. Конечно, стиль, пришел не за один день, – понадобились годы кропотливого труда, поиска.

Елена Сергеевна вместе с семьей проживает в России. Следует отметить, что она не оставила профессию, более того, стала работать в прежнем направлении – освещать деятельность российской полиции. Она, будучи в должности старшего корреспондента отдела медиа-проектов газеты «Щит и меч» Объединенной редакции МВД России, пишет замечательные материалы, заслужив признание читателей.

★ Служба охраны

Именно в этот момент продавец, работающий в одном из ближайших заведений общественного питания, своевременно отреагировал, нажав установленную «тревожную кнопку». Спустя несколько минут, сотрудники службы охраны прибыли на место происшествия.

У некоторых участников инцидента, нарушивших общественный порядок, были обнаружены ножи и кастеты. По данному факту приняты соответствующие правовые меры. В отношении 11 человек составлены административные протоколы.

Как видно, бдительность граждан, оперативность сотрудников и система «тревожная кнопка» позволили предотвратить возможное тяжкое преступление. Данная система служит обеспечению безопасной среды в махаллях, предотвращению престу-

«ТРЕВОЖНАЯ КНОПКА» – ГАРАНТИЯ ОПЕРАТИВНОСТИ

Около 22:05 на одной из центральных улиц Мирабадского района города Ташкента возник конфликт между молодыми людьми. Ситуация в считанные минуты обострилась. Если бы спор не был устранен своевременно, развитие событий могло бы стать более серьезным.



На снимке: (слева направо) младшие сержанты Жаксилик Анарбаев, Атхамхужа Акбаров, Жамшид Алимов.

■ Ташкентская область



СОВРЕМЕННЫЙ ПУНКТ ПРАВОПОРЯДКА

На качественно новый уровень поднята деятельность по созданию в махаллях безопасной среды, повышению эффективности системы раннего предупреждения правонарушений.

В рамках утвержденных «дорожных карт» в области создаются 28 современных пунктов правопорядка. Открытие одного из них состоялось недавно в Кибрайском районе. Пункт правопорядка № 9 будет обслуживать микроучасток с населением в 25 тысяч человек, объединяющий махалли Байткурган, Куприк Боши, Истикбол, Навбахор, Уймаут и имени Алишера Навои.

На базе данного пункта будет налажено взаимо-



действие инспекторов профилактики, сотрудников уголовного розыска, служб пробации, ППС, ДПС и др., что позволит оперативно реагировать на вопросы обеспечения

общественной безопасности.

Важный аспект – эффективное применение цифровых технологий и технических средств. Установленные на территории микроучастка камеры видеонаблюдения интегрированы в ситуационный центр пункта, что повысит эффективность мониторинга обстановки.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

плений и правонарушений, а также повышению эффективности деятельности правоохранительных органов.

Сотрудники группы оперативного реагирования, прибывшие на место происшествия и обеспечившие безопасность граждан, были отмечены памятными подарками ГУВД столицы. Подобные меры поощрения способствуют службе с еще большей ответственностью.

Камила ОРАЗТАЕВА,
подполковник.

HASANBOYNING USTOZI

Andijon boks maktabi, deganda, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy, II darajali «Sog'lom avlod uchun» va «Do'stlik» ordenlari sohibi Ziyatdinbek Toygonbayev ko'z oldimizga keladi. 50 yoshli sport ustasi ikki karra olimpiada championi Hasanboy Do'smatovning birinchi ustozи. Hasanboy bilan bu insonni ulkan yutuqlarga boy hayot yo'li bog'lab turibdi.

— Keling, eng avval, sizni o'quvchilarga qisqacha tanish-tirib o'tsak.

— Andijon viloyatinining Jalaquduq tumanida tug'ilib, o'sganman. 1994-yilda Respublika sport bilim yurtini tamomlab, Andijon oliv sport mahorat maktabida ish boshladim. Mehnat faoliyatim bilan parallel ravishda boks bo'yicha turli musobaqlarda ishtirot etdim. O'zbekiston championatida g'alaba qozondim. Professional boksda janglar o'tkazdim. Bu davrda ko'plab shogirdlar ham chiqardim. Ulardan Akmal Qodirov, Sardor Razzoqov O'zbekiston championi, Shuhrat Abdullayev, Sanjar Rahmonov Osiyo championi bo'ldi.

— Hasanboy Do'smatov bilan ilk tanishuvningiz haqida eshit-ganmiz. Shu voqeani o'zingiz gapirib bera qoling.

— 2001-yildan 2012-yilgacha Andijon olimpiya zaxiralari kolle-jida dars bergenman. Yodimda, 2006-yilda buvisi Hasanboy Do's-matovni oldimga yetaklab keldi. «Ko'ring-chi, shu bolani, boksga bermoqchi edik», dedi onaxon. Bolaning jussasi juda kichkina edi. Vaznini tortsak, 32 kilo chiqdi. Kollej tartib-qoidasi bo'yicha eng



kam vazn 44 kilo bo'lishi kerak edi. Uni o'zidan bir necha kilo og'ir vazndagi bolalar bilan jangga tushirdim. O'shanda Hasanboyning ko'zlarida olovni ko'rganman. Unga qo'rquv begona edi. Bolakaydan nimadir chiqishiga ishondim va kollej ma'muriyatidan iltimos qilib, zaxirada olib qoldim. Vaholanki, Hasanboy 13 yoshiga cha boks bilan shug'ullanmagan

ekan. Oradan bir yil o'tib, u O'zbekiston championatida g'olib bo'ldi va kollejga imtiyozli qabul qilindi. O'shandan buyon uning shaxsiy murabbiyi sifatida yonidaman va barcha musobaqalarga u bilan birga boraman.

— Sportchining imkoniyatini birinchi ko'rishdayoq payqasa bo'ladimi?

uzoqqa boradi, va albatta, natijaga erishadi.

— Hozir ham shogirdlaringiz ko'pmi?

— Hozirda Andijon shahrida mashg'ulot olib boryapman. 30 nafarcha shogirdim bor. Faqt yakshanba kuni dam olamiz. Qolgan olti kun mashg'ulotni kanda qilmaymiz. Maqsad — tezroq natija ko'rsatish.

— Ularning orasida Hasanboy kabi umidlilari bormi?

— Albatta. Azizbek, Munira, Muhayyo, Erkinboy, Surayyo kabi shogirdlardan umidimiz katta. Eng yaxshi natija ko'rsatayotgan shogirdim Aziza Yakubova. Bu qizni 2019-yildan beri shug'ullantirib kelaman. Intiluvchanligi, tarbiysi, yurish-turishi bilan ajralib turadi. 2022-yilda Turkiyada o'tgan ja-hon championatida 3-o'rinni oldi. 2024-yil Tailanddagi Osiyo chem-pionatida kumush medal sohibi bo'ldi.

— Musobaqalardagi nohaq-liklarga ham guvoh bo'lib turamiz. Nega murabbiylar bunday vaziyatda jim turadi?

— Chunki bizdan protest kiritish huquqi olib tashlangan. O'yindan keyin bu holat tegishli komissiya tomonidan o'rganib chiqilib, qonunbuzarlik holati tasdiqlansa, hakamlarga nisbatan chora ko'rilishi mumkin. Lekin natijaga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

— Ayni paytda qaysi mamlakat boks sportini eng kuchli deb hisoblaysiz?

— Albatta, mamlakatimiz boksi dunyoda yetakchi. Hozirda o'zbek bokschilariga teng keladigani yo'q.

— G'alaqa murabbiya qay darajada bog'liq?

— Bilasizmi, sportchi kuchli sport formasiga ega bo'lgan paytda jahldor, ta'sirchan bo'lib qolishi mumkin. Bunga zimmasidagi ulkan mas'uliyat, xotirjamlikning yo'qolishi, yaqinlar sog'inchi ham sabab bo'ladi. Natijada kuchli hayajon ta'sirida muhim bellashuvlarda im-koniyatni boy berib qo'yadi. Bunday paytda shaxsiy murabbiyning o'rni muhim. U shogirdini yaxshi bilgan holda, psixologik ta'sir ko'r-satib, yo'iga solishi kerak.

— Jahondagi eng nufuzli mu-sobaqa bu — Olimpiada o'yin-lari. «Los-Angeles — 2028»dan nimalarni kutyapsiz?

— Ikkita oltin medalni. Shogirdlarim — Hasanboy Do'smatovning uchinchi bor, Aziza Yakubovaning birinchi marta olimpiada championi bo'lishi uchun bor kuchim, mehnatimni sarflamoqchiman.

Nigora MIROLIM qizi suhbatlashdi.



BAXT – ODDIYLIKDA

Inson baxtli bo'lishi uchun ko'p narsa kerak emas. Aslida baxt oddiylik va samimiylilikda. Surxondaryo viloyati Transportlarda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi patrul-post xizmati xodimasi, safdar Shahlo Sadiyeva ana shu aqidaga tayanib yashaydi. U o'zining sevgan kasbi, oilaparvar turmush o'rtog'i va shirindan-shakar farzandlarining borligi, tinch va shirin tashvishlarga boy o'tayotgan har bir kuni uchun shukrona aytishni kanda qilmaydi.

– Aslida advokat bo'lishni orzu qilganman, – deydi safdar Sh. Sadiyeva. – Onam bu kasjni egallashimni xohlamaganidan so'ng ichki ishlar xodimi bo'lishga qaror qildim. 2016-yilda ilk xizmat faoliyatimni Transportlarda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasida boshladim. Qariyb 9 yil shu soha qozonida qaynadim, uning ichida yashadim, bu kasb hayotimning mazmuniga aylandi. Hattoki turmush o'rtog'imni ham shu kasb egalari orasidan tanladim. Bu esa mening ikkinchi yutug'im bo'ldi.

Lavhamiz qahramonining turmush o'rtog'i, serjant Husniddin Safarov viloyat IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi katta o'qchisi lavozimida faoliyat yuritadi. U, o'z navbatida, mas'uliyatl xodim,

shu bilan birga, Shahlo Sadiyevani tushunadi va uni qo'llab-quvvatlaydi.

Asosan aeroport hamda temiryo'l vokzali hududida fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va ommaviy tartibbuzarliklarning oldini olish uchun mas'ul bo'lgan qahramonimiz o'z ishini vijdonan ado etishga tirishti. Ish jarayonida temir yo'l vokzali hududida o'tkazilgan turli tadbirdarda faol ishtirok etib kelmoqda.

– Ayniqsa, yaqinda vazirligimiz tomonidan Termiz shahridagi yangi qurilgan ko'p qavatli uylardan biring boshlang'ich to'lovi to'lab berilgani quvonarli hol bo'ldi. Endi bizning ham o'z uyimiz bor. Bundan judayam mamnunman, – deydi Shahlo Sadiyeva.

Shahlo sportning yengil atletika turi bilan ham

shug'ullanadi. Hozirda Termiz iqtisodiyot va servis universitetining pedagogika va psixologiya yo'nalishida 3-bosqichda sirtdan tahsil olmoqda. Nihoyat uning oliy ma'lumotli bo'lish orzusi ham ushaladi.

Hayotda insonlardagi vafo va sadoqatni qadrlaydigan lavhamiz qahramoni doim maqsadlar sari odimlaydi. Imkon qadar ish bilan, oillasidagi vaziyatni bir maromda ushlashga intiladi. Xizmatdan, ro'zg'or yumushlaridan ortib, farzandlari Akobir va Sadiyaning ta'lim-tarbiyasi uchun alohida vaqt ajratadi. Ularga ingliz va rus tillarini o'rgatishdan erinmaydi. Ha, o'z kasbidan va oilasidan baxt topib yashashning namunasini ana shunday bo'ladi.

**Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.**



EHTIYOT BO'LING: KIBERFIRIBGAR!

ISHONUVCHANLIK TUZOQQA TUSHIRAR

Bugungi kunda internet tarmog'i orqali sodir etilayotgan jinoyatlar fuqarolarimizning soddaligi, ishonuvchanligi, shuningdek, kiberxavfsizlik sohasida yetarli bilimga ega bo'lganliklari oqibatidir. Shu bois telekommunikatsiya tarmoqlari va aloqa kanallarida kiberxavfsizlikni ta'minlash masalasi ham dolzarblashmoqda.

– Joriy yilning o'tgan davri mobaynida IIOFMB Navbatchilik qismiga o'zini go'yoki bank, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari, sug'urta yoki mobil aloqa kompaniyalari xodimi sifatida tanishtirish orqali firibgarlik harakatlarini amalga oshirishga uringan shaxslar haqida 165 dan ortiq xabar kelib tushgan, – deydi Yakkasaroy tumani IIOFMB HPB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatchilikning oldini olish bo'linmasi inspektori, leytenant Atham Mamayusupov. – Ushbu murojaatlar asosida 144 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lib,

shundan 56 tasi «issiq izida» fuqaro S.R. tuman IIOFMB boshlig'i nomiga ariza bilan murojaat qilib, noma'lum shaxs instagram ijtimoiy tarmog'i orqali kosmetika buyumlarini yetkazib berishini aytib, 1050000 so'm pullarni o'zlashtirib olgan va va'dasini bajarmay g'oyib bo'lgan. Mazkur holat yuzasidan olib borilgan tezkor surishtiruv ishlari natijasida ushbu jinoyatni Sh.Yu. sodir etganligi aniqlandi.

Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, joriy yilning 2 aprel kuni

hududdagi barcha ijtimoiy soha obyektlariga tashrif buyurilib, ayniqsa, katta yoshdag fuqarolarga firibgarlar amalga oshirayotgan harakatlar tushuntirilib, nayrangozlarning tuzog'iga tushib qolishning oldini olish bo'yicha kerakli tavsiyalar berilmoqda. Bundan tashqari, targ'ibot tadbirdarining samaradorligini yanada oshirish maqsadida mavjud 21 ta mahalla fuqarolarini o'zida jamlagan telegram messenjeri kanallari tashkil etilib, so'nggi vaqtarda sodir etilayotgan kiberjinoyatlar haqida ma'lumotlar, video, audio va boshqa targ'ibot materiallari guruhlarga joylashtirib borilmoqda.

Xulosa o'rnda noma'lum raqamdan qo'ng'iroq qilinganida, hushyorlikni oshirib, uning ko'r-satmalariga amal qilmaslik, shaxsiy ma'lumotlarni aslo begonalarga bermaslik va hech qachon oldidan pul to'lov qilmaslikni tavsya qilamiz. Shundagina xavfsiz va xotirjam bo'lasiz.

**Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.**

Toshkent shahri.



■ ГУВД г. Ташкента

ВАЖНЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ И ВЫДЕРЖКА

Ежедневно, заступая на службу, сотрудники органов внутренних дел принимают на себя груз ответственности за безопасность и спокойствие граждан. Их труд – не просто работа, это призвание, требующее самоотдачи и готовности к самым непредсказуемым ситуациям.

В этой сложной и ответственной сфере психологическое равновесие и стрессоустойчивость становятся не просто желательными качествами, а необходимостью. Представьте себе сотрудника, который, несмотря на бесконечные ночи и постоянное нервное напряжение, должен сохранять ясность ума, быстро принимать решения и проявлять эмпатию к людям, попавшим в беду. Без должной психологической подготовки это становится непосильной задачей.

Именно поэтому профилактика психологических расстройств в рядах ОВД приобретает первостепенное значение. Одним из ключевых направлений является обучение и повышение осведомленности. Регулярные тренинги по управлению стрессом помогают сотрудникам



осваивать эффективные техники саморегуляции и эмоциональной разгрузки.

В ГУВД города Ташкента, и в частности, среди

сотрудников УКД ОВД Бектемирского района, проводится активная работа по формированию стрессоустойчивости.

Это свидетельствует о понимании важности психологического благополучия сотрудников, которые стоят на страже на-

шего спокойствия. Ведь только эмоционально уравновешенный сотрудник способен эффективно выполнять свой долг, защищая закон и обеспечивая безопасность граждан.

Наряду с признанием ответственности службы в ОВД, особое внимание уделяется созданию поддерживающей среды, где доступ к психологам становится важным элементом. Грамотная организация рабочего процесса, включающая ротацию и учет рабочего времени, направлена на предотвращение выгорания. Регулярные психологические обследования позволяют учитывать индивидуальные особенности и разрабатывать персонализированные планы, а работа с семьями сотрудников и формирование культуры открытости создают атмосферу доверия и взаимопомощи.

**Зумрад САПАРОВА,
майор.**

■ Бухарская область

НЕЗАМЕНИМЫЕ ПОМОЩНИКИ



В кинологическом отделении УООП СОБ УВД области и его межрайонных группах налажена дрессировка служебных собак, призванных брать след преступника, обнаруживать наркотические средства и взрывчатые вещества по запаху.

Сотрудники 4-й кинологической группы вместе со своими питомцами активно участвуют в раскрытии преступлений по горячим следам. За минувший период года в составе следственно-оперативных групп они 42 раза выезжали на места происшествий и содействовали раскрытию 11 преступлений.

... Гражданин Г. Х. из махалли Кучок Пешкунского района обратился в дежурную часть РОВД и сообщил, что из сейфа в его мясном ларьке украли большую сумму денег. Младший инспектор-кинолог рядовой Муродилло Ботиров с собакой по кличке Марта выехал на место в составе группы. Четвероногий помощник определил направление, в котором скрылся злоумышленник, способствовав тем самым его обнаружению и задержанию.

... Приблизительно в 21:00 сотрудники отдела уголовного розыска Каракульбазарского

РОВД остановили для проверки белый «Кобальт», следовавший по улице Тараккиёт махалли Навбахор. Во внутреннем кармане пассажира А. Т. был обнаружен спичечный коробок, завернутый в белую бумагу. В нем оказалась 3,5 грамма марихуаны. В доме гражданина удалось найти такое же наркотическое вещество весом 1,56 грамма, спрятанное в мешке с кормом для скота. Большую помощь оказали младший инспектор-кинолог рядовой О. Икромов и его пес Чарс.

В последние годы укрепилась материально-техническая база отделения кинологии. Налажено племенное собаководство. Ведется системная работа по повышению квалификации кадров и подготовке служебных собак.

**Бобир ШУКУРОВ,
старший сержант.**

На снимке: рядовой М. Ботиров со служебной собакой.

XIZMAT JOYI – QOROVUL QO'SHINLARI

YURT OSOYISHTALIGIN MUQADDAS BILIB...

Ona Vatan osoyishtaligi yo'lida astoydil xizmat qilish, bu avvalo, mas'uliyatni his etish, shuningdek, turli tahlid va xavflar hamda kutilmagan holatlarga tayyor turish demakdir.

Ana shunday ezgu maqsadda zalvorli vazifalarni zimmasiga olgan III darajali serjant Ne'mat Qahhorov ham ahdiga fidoyilik bilan burchini ado etib kelmoqda. Asli Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida tug'ilib voyaga yetgan lavhamiz qahramoni yoshligidan tirishqoq, uddaburon va aytganini qiladigan edi. Ulg'aygani sayin ushbu xislatlari yanada kuchayib bordi. Ne'mat futbolning ashaddiy muxlisi bo'lish bilan birga, maydonda ham ajoyib o'yin ko'rsatish qobiliyatiga ega. U matabni tamomlagach, sport va pedagogika kollejida ta'lim oldi. Jismonan baquvvat hamda epchilligi bilan tengdoshlari orasida ko'zga tashlana boshladi. O'qishni bitirgach, bulung'urlik bolalarga futboldan murabbiylik qildi.



Oradan biroz vaqt o'tib esa, jognajon Vatani oldidagi yigitlik burchini bajarish uchun armiyaga otlandi. Harbiy xizmat uning hayotida o'chmas iz qoldirdi. Shu boisdan hayotini Vatan himoyasiga bag'ishlashga ahd qildi. Ilk xizmat faoliyatini IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Navoiy viloya-tida joylashgan 7532-harbiy qismda

shartnoma asosida boshladi. Ustozlaridan harbiylik sir-asrorlarini puxta o'rganib, malakasini oshirdi.

Ayni paytda Ne'mat Qahhorov ushbu harbiy qism ta'minot batalyoni seksiya komandiri lavozimida xizmat qilmoqda. U qo'l ostidagi askarlar-ning bilim va malakasini, jangovar shayligini oshirish hamda harbiy

intizomni mustahkamlash yo'lida tinmay izlanadi. Bundan tashqari, qurol-aslahalarni texnik ta'mirlash va o'q otish mashg'ulotlarini ham tashkil etib kelmoqda.

– Harbiylik nafaqat kasb, balki yurtga sodiqlik va mas'uliyat ifodasi hamdir, – deydi u. – Ushbu sharafli soha kishida chinakam matonat va Vatan taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytiradi.

Mana, qariyb o'n yillardki, o'z vazifasini sadoqat bilan bajarib ke-layotgan Ne'mat Qahhorov ko'plab shogirdlar yetishtirib, ularning harbiy bilim va tajribasi hamda texnika va qurol-aslahalar bilan ishslash salohiyatini yanada takomillashtiryapti. U o'tgan yili qo'shinlar miqyosida o'tkazilgan «Ustoz-shogird» ko'rik-tanlovida ham shogirdi oddiy askar Shahzod Shokirov bilan faol ishtirot etib, jismoniy tayyorgarlik, o'q otish va harbiy hujjatlarni yuritish shartla-rida mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

CHEKKA HUDUD

«QIRIQ QIZ QAL'A» «YASHIL»LAR QATORIDA

Ellikqal'a tumanining mar-kazidan 12 km uzoqlikda joy-lashgan «Qiriq qiz qal'a»sining eski devorlarini ko'rish mumkin. Qal'ani o'rganib chiqqan olimlar uning bir paytlari Xorazm davlatining shimoli-sharqiy hududlari-dagi himoya qo'rg'onlaridan biri bo'lganligi to'g'risida xulosa be-rishgan. Uning nomlanishiga ke-ladigan bo'lsak, mahalliy aholi qoraqalpoq xalqining milliy dos-toni bo'lgan «Qirq qiz» dostoni bilan bog'lashadi. Dunyo ada-biyotida kam uchraydigan deya baho berilgan mazkur doston syujetiga ko'ra, bosh qahramon qizi Guloyim yoniga qirq qizni yig'ib, podshoh otasi bergen qo'rg'onda harbiy mashqlar olib boradi. Keyinchalik dushmanlar dan yurtini himoya qilib, ozod etishga muvaffaq bo'ladi.

Ayni kunda ushbu hududda «Qiriq qiz qal'a» ovul fuqarolar yig'ini joylashgan. Shuningdek, ovul To'rtko'Ining «Yonboshqal'a», «Adakayev» ovullari bilan chegaradosh hisoblanadi. Ovulda tinchlik-osoyishtalikni asrash, huquqbazarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish yuzasidan olib borilgan ishlardan natijasida ikki yildan buyon «yashil» toifadagi hudud sifatida e'tirof etib kelinadi. Albatta, bunda Ellikqal'a tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, katta leytenant Botir Iskandarovning hissasi kattadir.

– Ayni kunda «Qiriq qiz qal'a» ovul fuqarolar yig'inida 6 ming nafardan ortiq fuqarolar istiqomat qilib keladi. Hududda tinchlik-osoyish-



talikni asrash maqsadida ovul fuqarolar yig'ini raisi Madamin Raxmanov boshchiligidagi, faollar bilan yaqin hamkorlikda ishlayapmiz. Sa'y-harakatlarimiz natijasida hududimiz jinoyatdan xoli bo'lishiga erishdik, – deydi profilaktika katta inspektori katta leytenant B.Iskandarov.

Haqiqatan, joriy yilning o'tgan davri mobay-nida ushbu tamoyil asosida lavhamiz qahramoni tomonidan 270 ta xonardonning yashash sharoiti, muammolari o'rganib chiqilgan. Aniqlangan masalalar bo'yicha berilgan jami 53 ta xulosaning 41 tasi o'zining ijobi yechimini topib, qolgan qismi tegishliligi bo'yicha ko'rib chiqilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ovul chekka hudud hisoblanganiga qaramay aholiga qator qulayliklar yaratilgan. Xususan, o'tgan yili gazonli yangi futbol maydonchasi foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, homiyalar yordamida tashkil etilgan kutubxona aholining ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qilyapti. Yangidan barpo etilgan «Yoshlar guzari»da esa madaniy hordiq chiqarish uchun qulayliklar yaratilgan.

Lavhamiz qahramoni Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetini tamomlaganidan so'ng, biroz muddat o'cta maxsus bilim yurtida o'qituvchi bo'lib ishladi. Otasi Sobir Iskandarovning prokuratura, sud organlarida, akasi O'ktamning ichki ishlar organlari safida xizmat qilishi unda huquqni muhofaza qilish idoralarida ishslash ishtiyoqini uyg'otdi. 2016-yilda sohadagi ilk xizmat faoliyatini To'rtko'I tumani IIB

huzuridagi Qo'riqlash xizmatida safdarlikdan boshlab, turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatadi. So'ngra Ellikqal'a tumani II Bga o'tkaziladi.

U nafaqat xizmatda, balki jamoat ishlardida ham faol. Xususan, 2024-yilda IIV tizimida o'tkazilgan «Namunali oila» ko'rik-tanloving Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida uning oilasi 1-o'ringa munosib deb topildi. Hozirda turmush o'rtog'i Gulbahor Murodova bilan Farzona va Bobir ismli farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

NUKTASI NAZAR

КУЛФАТЛАР САБАБЧИСИ

ЁЛГОН

... Ёш келиннинг оиласи бузилиб кетди. Орага кўпни кўрган, кайвони онахонлар тушди. Лекин эр ва унинг ота-онаси келинини кўп бора алдаб келгани, ёлғончилиги учун кечира олишмади.

Қайнота бўлмиш сўзида қаттиқ туриб олди: «Бошқа айбни кечирса бўлар, лекин ёлғончи

одам тузалмайди. Эртага фарзанд кўриб, унга таълим-тарбия берадиган она ёлғонни касб қилиб олса, зурриёдларимизнинг ҳам феълида ноқислик бўлади, шунинг учун ҳам яра газак олмай туриб, ҳаммасига нуқта кўйган афзал!»

Чиндан ҳам ёлғон бор жойда ишончсизлик

мутахассисларнинг қадрига етмайди. Шунинг учун ҳам ишхонамидан барака кетган, – дея ёзғиради нуфузли ташкилотда ишлайдиган аёл.

Бундай табиатга эга раҳбар қўл остидаги ходимлари олдида обрўсими ҳам йўқотганига ачинасан киши. Бу тоифадаги инсонлар узоқча боролмаслиги аниқ. Чунки одамларнинг бундай кўзбўямачиликларга тоқати етмайди-да...

Чақимчилик ҳам ёлғончиликнинг бир тури бўлиб, одамлар орасига нифоқ уруғини сочади, душманчилик кайфиятини уйғотади.

Муқаддас китобларимизда ҳам ёмон одамлар сафида, энг аввало, ёлғончилар туриши зикр этилган. Ёлғончилик муаммоларини ўрганувчи психологлар, ҳақиқатни айтишдан кўра ёлғон гапириш қўйинлигини таъкидлашади. Ёлғон табиати,



Ҳар кимки сўзи ёлғон,
Ёлғони зоҳир бўлгоч ўёлғон.

А. Навоий

бўлади, ҳатто энг яқин биродарлар, қавму қариндошлар ҳам бир-бирларига ишончни йўқотишади. Ёлғон нафақат оилаларни пароканда қиласиди, балки жамиятни ҳам парчалайди, тарафкашлик, гуруҳбозлика йўл очилади.

– Бошлиғимиз жуда инсофисиз, кўзингга қараб ёлғон ваъдалар беради. Одам ажратади, иқтидори йўқ бўлса-да, ўзига қарашлиларни қўллаб-куватлайди. Фидойи

намоён бўлиш шакли ва мақсадига кўра фарқланади. Ҳар қандай ёлғон хавфли: унинг катта кичиги, очиқ ва яширин, содда ва айёроналиги аҳамиятсиз. У кимдан чиқишидан қатъи назар, аниқланмаган ёлғон алоҳида хавф туғдиради. Жиноят жараёнида ҳақиқатни аниқлашда, тўғри қарор қабул қилишда, у адолатга жиддий путур етказиши мумкин.

Гулчехра БУВАМИРЗАЕВА,
уз мухбиришимиз.

КОРРУПЦИЯ – ИЛЛАТ

БУТУН ЖАМИЯТНИНГ ТАШВИШИ

Мамлакатимиз ички ишлар органлари тизимида коррупцияга қарши курашиш борасида кўплаб амалий ишлар қилинмоқда. Чунончи, кейинги вақтда фаолият очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш, коррупциявий ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида барча маҳаллаларда ҳуқуқ-тартибот масканлари видеокузатув мосламалари ўрнатилгани, йўл-патруль хизмати инспекторлари боди-камералар билан таъминланди. Шу билан бирга, ҳуқуқбузарликлар ва жиноятларни рўйхатга олиш бўйича янги рақамлаштирилган платформани ишга тушириш юзасидан амалий ишлар олиб борилмоқда.

Энг муҳими, давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, «Коррупциянинг олдини олиш – давлат хизматига профессионал ва фидойи кадрларни танлаш ҳамда уларни «ҳалоллик вакцинаси» билан эмлашдан бошланади». Бу йўналишда ҳам тизимда дикқатга сазовор ишлар олиб борилаётгани таъкидлаш жоиз.

Коррупцияга қарши курашишнинг муваффақиятли тажрибаларига мурожаат

этадиган бўлсак, **Сингапурда** бюрократияни минималлаштириш, қатъи қонунлар ва давлат хизматчилари учун юқори маошлар коррупцияни йўқ қилди. Қолаверса, бу давлатда Коррупцион ҳолатларни тергов қилиш бюроси (СПИБ) фаолият юритиб, у маҳфий текширув асосида ҳар бир мансабдор шахснинг молиявий ҳолатини назорат қилиш ваколатига эга. **Грузияда** эса, полиция ва давлат тузилмаларининг

кеескин ислоҳоти коррупция даражасини сезиларли даражада пасайтириди. Бу тажриба коррупциялашган ходимларни янги профессионал ходимларга алмаштиришга шароит яратди. **Швецияда** самарали жа-



моатчилик назорати ва шаффоф бошқарув тизими мавжуд. Бунда очиқ маълумотлар базасини яратиш ва мустақил суд тизимини йўлга қўйиш каби ҳаракатлар халқни давлат институтларига нисбатан ишончини юқори даражага олиб чиқилишига сабаб бўлган.

Коррупцияга қарши курашиш узоқ муддатли жараён бўлиб, комплекс ёндашувни талаб қиласиди. Қатъи қонунлар, шаффоф давлат тизими, мустақил суд ҳокимияти ва фаол фуқаролик жамияти биргалиқда ҳақиқий ўзгаришларга олиб келиши мумкин. Энг муҳими – бефарқ бўлмаслик ва давлат идораларидан ҳалолликни талаб қилишдир.

Хулоса ўрнида давлатимиз раҳбарининг «Коррупцияга қарши кураш жараёни ҳеч қачон аниқ муддат билан чекланмайди. Ушбу масалада факт давлатнинг саъй-ҳаракати билан кутилган натижага эришиб бўлмайди. Бу – бутун жамиятимизнинг иши» деган фикрларини келтириш мақсадга мувофиқдир.

Шаҳбоз ШОЙМАРДАНОВ,
катта лейтенант.
Тошкент шаҳри.



KO'RIK-TANLOV

IIV Madaniyat saroyida ichki ishlar organlari xodimlarining oilalari o'rtasida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Namunali oila» ko'rik-tanloving vazirlik markaziy apparati bosqichi bo'lib o'tdi.

Ona Vatan osoyishtaligi yo'lida xizmat olib borayotgan yurt posbonlarining ibratga arzilik jihatlarini namuna qilib ko'rsatishda muhim qadamlardan biri bo'lgan mazkur tadbirda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lim boshlig'i Pardaxol Norqobilova hamda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bosh inspektori Zarifa Iskandarova mamlakatimizda zamnaviy, namunali, farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biriga aylanganligini ta'kidlashdi.

Shundan so'ng vazirlik sohaviy xizmatlaridan 7 ta oila «Tanushtirish», «Bu mening oilam» hamda «Biz – kitobxon oilamiz» shartlari bo'yicha o'zlarining iste'dodlarini sinab ko'rish bilan birga, obrazga kirish mahoratlari ham namoyish etishdi. Ya'ni, ishtirokchilar 1-shartda milliy raqs, she'r, qo'shiq va boshqa ijrochilik mahoratlari orqali sog'lom, namunali oilaning jihatlari, ularning erishgan yutuqlarini na-

moyish qilishgan bo'lsa, 2-shartda oilaviy fotoalbum hamda o'zlarining jamiyatda tutgan o'rnini, kasbi, sevimli mashg'uloti, o'zaro oilaviy munosabatlar, oiladagi an'ana va qadriyatlarni aks ettiruvchi video-roliklarni tomoshabinlar e'tiboriga

havola etishdi. Tanlovning so'nggi 3-shartida esa yurtimiz va dunyo adabiyotining buyuk namoyandalar qalamiga mansub asarlarning mazmun-mohiyati bo'yicha berilgan savollarga javob qaytarishdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Probatsiya boshqarmasi muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, **podpolkovnik Sanjar Isayev oиласи 1-o'ringa** munosib topilib, tanloving respublika bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. Vazirlik Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtrish boshqarmasi katta mutaxassis, **mayor Rustam Keldiyarov oиласи ikkinchi pog'onani** zabit etdi. IIV Malaka oshirish instituti o'quv-saf qismi otryad komandirining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rnbosari, **leytenant Baxtiyor Abdushukurov oиласи tanloving 3-o'rin** sohibiga aylandi. G'oliblar diplom va qimmat-baho esdalik sovg'alari bilan tanta-nali ravishda taqdirlandi.

Shuningdek, tanlovdan «Ibratli oila boshlig'i», «Eng faol oila» hamda «Sportchi oila» nominatsiyalari bo'yicha ham peshqadamlar aniqlanib, ularga ham turli mukofotlar topshirildi.

Mixli SAFAROV, o'z muxbirimiz.

JAMIYAT TAYANCHI



QAROR VA IJRO

BULOQBOSHIDA YANGI MASKAN

El-u yurt tinchligi va osoyishtaligini asrash dolzarb masala. Tinch yurtda-gina insonlar xotirjam hayot kechiradi, ertangi kunga umid hamda ishonch ko'zi bilan boqadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda yangi huquq-tartibot maskanlari tashkil etilishi ham tinchlikni mustahkamlash yo'lidagi samarali chora-tadbirlardan biri bo'ldi. Andijon viloyatining kichik tumanlaridan biri hisoblangan



Buloqboshida ham ana shunday huquq-tartibot maskani ish boshladi.

Tuman markazidan o'tuvchi katta yo'lning shundoqqina yuzida joylashgan maskan mu-rojaat bilan keluvchilar uchun har tomonlama qulay. Binodan tortib, jihozlargacha yangi, zamnaviy. Xizmat xonalari barcha zarur ish qurollari bilan ta'minlangan. Yuqori malakaga ega sohaviy xizmat xodimlaridan iborat tarkib kun-u tun xizmatda.

— Joriy yilning 1-aprel sanasidan o'z faoliyatimizni boshladik. Maskanimiz Mirzakalon Ismoiliy nomli mahalla fuqarolar yig'ini o'ramida barpo etildi. Ushbu mahalla 4 yildan buyon «qizil» toifada, — deydi bosh inspektor, podpolkovnik Mansurjon Xolmanov. — Hududda bozor va boshqa jamoat maskanlari mavjudligi uchun turli huquqbazarliklar sodir bo'lib turadi. Shu bois kriminogen vaziyat og'ir mahalla toifasiga kirib qolgan. Bundan tashqari, «Uch ko'cha», «Farovon», «Qumguzar» kabi «yashil» toifadagi yana uchta MFYga xizmat ko'rsatamiz. Ayni paytda huquq-tartibot maskanimiz tomonidan nazoratga olingan hudud aholisi 12 800 nafarni tashkil etadi.

Podpolkovnik Mansurjon Xolmanovning aytishicha, yangi tuzilmada osoyishtalikni saqlash va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish uchun barcha zarur vositalar mavjud. Masalan, bosh inspektorga «Damas» rusumi xizmat avtomashinasi ajratildi. Hududga 21 ta kameralar o'rnatilib, uskunalar bitta kompyuteriga integratsiya qilindi. Bu jarayon vaziyatni doimiy kuzatib borish va yuz berish ehtimoli bo'lgan huquqbazarlikni avj olmasidan avval to'xtatib qolish imkonini yaratadi. Yana bir qulaylik — mikrofonli radioapparat hisoblanib, unga ulangan ko'chalar va jamoat joylaridagi radiokarnaylar yordamida aholini turli jinoyatlar



xavfidan doimiy ravishda ogohlantirib turish mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, bosh inspektor va kichik inspektor kabi yangi lavozimlarning joriy etilishi sohaga o'zgacha yondashuvni ifodaladi. Bundan tashqari, bir nafar Probatsiya xizmati, YPX, xotin-qizlar bilan ishslash hamda profilaktika kichik inspektorlari, ikki nafar qo'riqlash xizmati, to'rt nafar profilaktika inspektor, bir nafar jinoyat qidiruv xodimining jalb etilgalligi ahamiyatga ega. Qolaversa, voqeja joyiga tezkorlik bilan yetib borishni ta'minlovchi aloqa vositalari, xizmat avtomashinalarining mavjudligi ham jinoyatchilikka barvaqt barham berishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, qat'iy nazorat tizimi va tezkor xizmatlarning yo'lga qo'yilganligi natijasida shu kungacha hududda bironta huquqbazarlik kuzatilmadi. Chunki qoidabuzarlikka moyil shaxslar ham kuzatuvlar kuchaytirilgani, qonun ustuvorligi, qolaversa, jazo muqarrarligini tushunib yetmoqda.

Nigoraxon TO'XTAMATOVA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ

ОШҚОЗОННИ КИЧРАЙТИРИШ ҚАЧОН ТАВСИЯ ЭТИЛАДИ?

Кейинги пайтларда ошқозонни жарроҳлик йўли билан қисқартириш орқали семизликдан қутулиш тобора оммалашиб боряпти. Авваллари бундай жарроҳлик учун Туркияга бориб келинарди, сўнгги йилларда эса бу жараён Ўзбекистонда ҳам амалга оширилмоқда. Хўш, мазкур жарроҳлик амалиёти қанчалик хавфсиз? У ўзи қандай ҳолларда тавсия этилади?

Эътибор қилинса, жарроҳлик йўли билан озишга рози бўлганларнинг аксарияти ортиқча вазнга қарши узоқ вақт курашган, бироқ фойдаси бўлмаган. Кўпчилик парҳез тутиш, спорт билан шуғуланиш каби табиий озиш усулаидан кўра, тезроқ натижага эришиш ва муаммодан қисқа муддатда ҳалос бўлишни исташади. Аслида семизликка ошқозоннинг катталиги асосий сабабми, деган ҳақли савол туғилди. Йўқ, албатта. Ортиқча вазннинг юзага келишига бир неча омиллар: камхаракатлик, турли зарарли одатлар, қандли диабет,

депрессия, стресс, психоневрологик, шунингдек, гормонал ўзгаришлар ва гормон дориларни қабул қилиш ҳам сабаб бўлиши мумкин.

Тиббиётда семизлик турли даражаларга бўлинади. Тана вазни индекси 30 дан 35 гача бўлса биринчи, 35–40 гача иккинчи, 40 дан юқориси учинчи даражали ҳисобланади. Тана вазни индекси 40 дан юқори бўлганда, 16–60 ёш оралиғидаги беморларга мутахассислар жарроҳлик йўли билан озишни тавсия этишади.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, ошқозонни

кичрайтириш амалиётини ҳам қўллаш мумкин бўлмаган ҳолатлар мавжуд. Энг аввало, сурункали юрак касаллигига чалинган инсонларда бариатрия операциясини бажариш тавсия этилмайди. Қолаверса, буйрак етишмовчилиги, жигар, ўсма хасталиклари бор деморларда ҳам бу муолажани ўтказиш мумкин эмас.

**Анвар БЕКТЕМИРОВ,
Наманган вилояти
ИИБ Тиббиёт бўлими
поликлиникаси
умумий амалиёт
шифокори.**

БОДОМ ХОТИРАНИ ЯХШИЛАЙДИ

Микроэлементлар ва витаминларга бой бодом мағзи қон, жигар, буйрак тозалаш, сафро ҳайдаш хусусиятларига эга. У калий, фосфор, магний, кальций, темир, В гурӯҳи витаминлари манбаи ҳисобланади. Бодом мия фаолиятини, кўриш қобилиятини ва хотирани яхшилайди, иммунитетни оширади, ичаклар фаолиятини меъёrlаштиради, тушкунлик ҳолатидан чиқишига ҳамда уйқуни тартибга солишига ёрдам беради.

Бодом қийин ҳазм бўлиши сабабли уни асал билан истеъмол қилган маъқул. Шунингдек, у целлюлоза ва Е витаминига бой, бу эса организмнинг яллиганиш жараёнларига қарши самарали курашиб имконини беради. Бодом организмни тозалайди, ичак микрофлорасини фойдали бактериялар билан тўйинтиради.

Кунига атиги 4-5 дона бодом ейиш холестерин


микдорини камайтиришга ёрдам беради, қон айланишини, мия фаолиятини, соч ва тери ҳолатини яхшилайди, юрак касалликларининг олдини олади ва организми эрта қаришдан ҳимоя қиласди.

Ушбу маҳсулот таркибидаги ёғ кислоталари организмни қонга ортиқча глюкоза сўрилишидан ҳимоя қиласди. Ундаги тўйинмаган ёғлар, аминокислота

ва минераллар юрак ва қон томирлари учун жуда фойдали. Унинг мунтазам истеъмоли 50 ёшдан ошган одамларда ақл заифлашиби ва Альцгеймер касали юзага келишининг олдини олади.

Лекин шуни ҳам унутмаслик керакки, бодом аллерген маҳсулот ҳисобланади. Шу боис истеъмолда меъёр сақлаш ўта мухим.

**Гулчехра АЗИМОВА
тайёрлади.**



ЗИРАВОРЛАР СУЛТОНИ

Заъфарон – бу дунёдаги энг қиммат зиравор бўлиб, заъфарон крокурс гулидан олинади. Заъфарон икки шаклда бўлиб: кукун шаклида ва крокус гилининг стаменслари бўлган заъфарон иплари шаклида. Заъфарон озуқа моддалари, витаминлар, минераллар ва эфир мойларининг жуда бой таркибида эга.

Сурункали касалликларнинг ривожланишидан ҳимоя қилишга ёрдам берадиган кучли яллигланишга қарши ва антиоксидант бирикмаларни ўз ичига олади.

Заъфарон овқат ҳазм қилишни яхшилаб, иштаҳани очади, организмнинг ҳаётий фаоллигини яхшилайди, кишилар ундан ошқозон, юрак, жигар, нафас олиш аъзолари ва асаб тизимини мустаҳкамлашда, буйракларни тозалашда, оғриқни қолдиришда, тинчлантирувчи, пешоб, ўт ва тер ҳайдовчи восита сифатида фойдаланишади. Лекин ҳомиладорликда уни истеъмол қилиб бўлмайди, чунки у ҳомиланинг тушишига сабаб бўлиши мумкин.

Заъфарон доришунослик саноатида кенг ишлатилади, у шарқ табобатининг 300 дан ортиқ дори-дармонлари таркибида киради. Унинг дамламаси билан қадимда катарактани даволашган, ҳозирги вақтда ҳам у кўзга томизиладиган дорилар таркибида кўшилади.

Заъфарон бутун организм ҳужайраларини озиқлантиради, терини силлиқ қиласди, рангни тиниқлаштиради, хотира ва ақлий фаолиятини яхшилайди, кайфиятни кўтаради. Умумий организмни мустаҳкамлаб, фаоллаштиради. Қонни яхши тозалашда, иммунитетни мустаҳкамлашда, онкологик касалликларнинг олдини олишда кенг қўлланилади.

Ҳар қандай доривор ўсимлик сингари, заъфарон нафақат фойда, балки зарар ҳам келтириши мумкин. Масалан: оналарнинг фарзанд эмизикиларни даврида, гипертониянинг ўтқир босқичида, уч ёшга тўлмаган болалар, сурункали руҳий ва асаб касалликларида, I-II тип қандли диабет билан оғриган беморларга, озиқ-овқатдан аллергияси борларга, ичак, ошқозон, ўн икки бармоқли ичакда ярати касалликлари билан оғриб келаётган беморларга асло мумкин эмас.

Катталар истеъмол қилишда кунига зираворни 2-3 дона ипак толасидан фойдаланилади. Йилига 1 граммдан кўп бўлмаган заъфарондан истеъмол қилиш жоиз. Унинг микдорини ошириб юбориш оқибатида, бош айланиши, чарчоқ, оғиз қуриши, бош оғриғи каби белгилар кузатилса зираворни ичиш тўхтатилади. Шунинг учун ҳар қандай зираворларни истеъмол қилишдан олдин шифокор билан маслаҳатлашиш мақсадга мувофиқдир.

**«Саломат бўлинг» журналидан
Гўзал ЖАФАРОВА таржимаси.**

КАК УМЕНЬШИТЬ ВЛИЯНИЕ МАГНИТНЫХ БУРЬ



Чтобы минимизировать негативное воздействие магнитных бурь на организм, рекомендуется:

- пить больше воды;
- включать в рацион больше овощей и фруктов;
- принимать контрастный душ;
- при ощущении усталости позволять себе отдых;
- больше времени проводить на свежем воздухе;
- регулярно проветривать помещение;

– выполнять дыхательные упражнения для насыщения крови кислородом;

- начинать день с легкой утренней зарядки для активации кровообращения;
- следить за эмоциональным состоянием и избегать стрессов.

Метеочувствительным людям особенно важно в такие дни хорошо высыпаться и не перегружать организм – желательно отказаться от интенсивных тренировок и физической активности.

НАЙТИ СВОЕ ПРИЗВАНИЕ

Капитан Нодира Рискулова, социальный работник Центра оказания социально-правовой помощи несовершеннолетним ОПП СОБ УВД Джизакской области, проявляет искреннюю заботу о судьбах своих подопечных.



Так, в ходе одной из рабочих встреч она начала выяснять обстоятельства, при которых подросток оказался в центре. Оказалось, что после развода родителей он не захотел жить с отцом, а мать, вступив в новый брак, не смогла принять сына в новую семью. Капитан Рискулова внимательно расспросила подростка о других родственниках, записала их контакты. Простыми и понятными словами она объяснила мальчику, как важно найти свое место в жизни через учебу, освоение профессии. Она также посоветовала записаться в кружок или спортивную секцию, приобщиться к чтению книг. «Вот увидишь, все наладится», – подбодрила капитан.

Позднее Нодира побеседовала с родственниками подростка, инспектором профилактики, учителями. Она убеждена: несовершеннолетнему необходима семья со

здоровой нравственной атмосферой, где его смогут окружить заботой и вниманием...

Свободное от службы время Нодира Рискулова посвящает своим увлечениям. Она знакомится с новинками художественной литературы. В ее личной библиотеке насчитывается уже более ста книг. Одним из любимых хобби стала флористика – искусство создания декоративных композиций из природных материалов.

Этим направлением капитан увлеклась во время декретного отпуска. Она освоила изготовление букетов, композиций, бра, ламп, а также монтаж подсветки для своих работ. Флористика требует сосредоточенности и терпения, помогает отвлечься от будничной сути, обрести душевное равновесие. Изделия, выполненные собственными руками, становятся прекрасными подарками для близких. Любовь к этому виду творчества Ноди-

ра Рискулова старается привить и несовершеннолетним, находящимся в Центре.

Вместе с супругом, адвокатом по профессии, воспитывают трех детей. Помимо этого, капитан Рискулова обладатель красного пояса по тхэквондо, а ранее в течение трех лет защищала честь Джизакской области, выступая в составе гандбольной команды на республиканских соревнованиях.

Самодисциплина помогает ей в службе. За высокие профессиональные достижения не раз поощрялась Министерством внутренних дел, УВД области.

В органах внутренних дел Джизакской области таких, как капитан Нодира Рискулова, – целестремленных, преданных своему делу сотрудников – немало.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.
Джизакская область.**

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ (5 – 11 май)



Құй. Ҳафтагиз жуда ажойиб бошланади ва сиз қар бир вазиятни үз хошишингиз бүйіча ташкил этиш имконига эга бўласиз. Олдинга дадил ва мардана қадам ташланг. Заарли одатлар анчадан бери сиз учун қийинчиликлар туғдираётган бўлса, бугун улардан халос бўлиш пайти келди.



Бузоқ. Бу давр сиз учун жуда қувончли кечади. Фақат пул масаласида таваккалчиликка йўл қўймаганингиз маъқул. Жума кунидан кейин иш жойида тушунмовчиликлар, молиявий қийинчиликлар ва оиласда муаммолар кузатилиши мумкин. Бунга сиз томондан масъулиятнинг сустлашиши ва интизомга амал қилмаслик сабаб бўлади.



Эгизаклар. Кўнгилсизликларни четлаб ўтиш ниятида бўлсангиз, йўл-йўлакай учрайдиган майдо-чўйда ноқулайликларга ҳам эътибор беринг. Ишхонадаги вазифаларни бажариб, юқори натижага эга бўлишни хоҳласангиз, астойдил, тер тўкиб ишлашингизга тўғри келади.



Қисқичбақа. Ҳафта бошидан ҳеч ким билан баҳслашманг. Бу катта жанжалга айланиб кетиши мумкин. Айниқса, бирорларга келажак режаларингизни билдира кўрманг. Янги ишларга қўл уришдан олдин ақлинингизни ва кучингизни тўплаб олишингиз зарур бўлади.



Арслон. Ҳафтанинг ilk кунлари молиявий аҳволингиз яхшиланиб, ҳатто сармояли таклифлар олишингиз мумкин. Бу паллада сизни янги таассуротлар ва ёрқин ҳис-туйғулар кутмоқда. Ҳам шахсий масалалар, ҳам иш юзасидан кўп жойларда бўлишингиз кутилмоқда.



Паризод. Ҳафтагиз унумли кечиши кутилмоқда. Агар кузатувчаникни оширсангиз, иш жойингизда мартабангиз юқорилаши эҳтимоли юксак. Бу даврда сира қйналмасдан рўзгор ҳамда молиявий муаммоларни бартараф этишга эришасиз. Бироқ саломатликка эътибор қаратишни ҳам унтиб қўйманг.



Тарози. Бу ҳафта учун тузган режаларингизнинг аксарияти амалга ошиши мумкин. Ҳаммаси сизга яқин инсонларга, уларнинг қўллаб-куватлашига боғлиқ. Келиб тушадиган молиявий таклифларга жиддий аҳамият қаратинг. Оилавий ҳаётда эса, аксинча, икир-чикирларга эътибор қилмай, кўпроқ меҳр улашишга ҳаракат қилинг.



Чаён. Душанба ва сешанба шахсий ҳаётга эътибор қаратиш учун қулай палла. Кейинги кунлар одатдагидек бир хилда ва зерикали ўтиши, на яхши, на ёмон хабар улашмаслиги кутилмоқда. Ҳафта сўнги оғир келади, бу жабҳада меъёрдан ортиқ куч-ғайрат сарфламасликка урининг.



Ўқотар. Сиз учун ҳафта бироз оғир кечади. Дўйстлар ёки ҳамкаслар айби билан нохуш вазиятларга тушиб қолишингиз эҳтимоли бор. Ҳафта сўнгида имкониятингиз кўтарса, кичик оилавий байрам уюштиринг. Бу яқинларингиз билан муносабатлар жипслашувига сезиларли таъсир кўрсатади.



Тоғ эчкиси. Бу даврда нотаниш кишилар билан мулоқот қилишингизга тўғри келса, сирларингизни тўкиб солишдан сақланинг. Ички ҳистайғуларни ўзингиздан бошқасига ишонманг. Молиявий муаммолар бу ҳафта сизни безовта қилмайди, аксинча, барча ишларингиз осонгина бароридан келади.



Қовға. Бу ҳафта ишда ҳам, шахсий ҳаётда ҳам кўпгина жиддий тўсиқларга дуч келишингиз мумкин. Шунинг учун ҳафта бошидан бунга руҳан тайёр туришингиз керак. Сиз албатта тўсиқларни мардана енгиг үтасиз. Бунда ҳамкасларингиз ҳам яқиндан ёрдам кўрсатиши эҳтимолдан холи эмас.



Балик. Ўтиб кетган кўнгилсиз воқеаларни ёдга олиб қайғуга ботиши тўхтатинг. Бизнес фаолиятида ҳисоб-китобда адашишдан эҳтиёт бўлинг. Муҳим хужжатларга имзо қўйишда сергакликни қўлдан берманг. Саломатликни янада мустаҳкамлаш учун кечқурнлари узоқ вақт пиёда сайр қилиш тавсия этилади.

NIYAT XOLIS, MAQSAD ULKAN

Jizzax shahrining «Ziyokor» mahallasida yashovchi Bunyod Egamqulovni zamonamiz qahramoni, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, bu inson hovlisida o'z hisobidan jahon standartlariga mos voleybol zali qurib, 32 nafar o'smirni bepul shug'ullanmoqda.

Mazkur sport maskani o'zi-ga xos tarixga ega. Hammasi bundan 19 yil ilgari sport kolleji o'quvchisi Bunyod Egamqulovning Jizzax shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston championatida qoyilmaqom o'yin ko'rsatishidan boshlangan. O'spirindagi iqtidor va shijoatni sezgan Toshkent moliya universitetining voleybol murabbiyi Ismat Islomov uni oliy o'quv yurtiga o'qishga taklif qilar ekan, sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun sharoit yaratib berishini, mashqlarni kanda qilmasa, undan ajoyib voleybolchi yetishtib chiqishini bildirdi.

Bunyod astoydil tayyorlandi va talabalar safidan joy oldi. So'ng universitet jamoasiga qo'shilib, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlagan ustozni ko'magida mahoratini oshirdi. Natijada yirik sport klublari vakillari e'tiboriga tushdi va professional sportda-gi faoliyatini boshladi.



Xususan, «Oriyent finans bank», so'ng «OTMK» tarkibi-da mamlakat birinchiligi uchun o'tkazilgan musobaqalarda ja-moadoshlarining yuqori natija-larni qayd etishiga katta hissa qo'sha oldi. Shu bilan birga 2006–2024-yillarda O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosasi hamda sardor sifatida faoliyat ko'rsatdi. Bu davrda ja-moadoshlarining respublika birinchiliklarida 10 ta oltin, Osiyo va Markaziy Osiyo musobaqalarida 3 ta kumush, 2 ta

bronza hamda bitta oltin medalni qo'lga kiritishlarida muhim o'rinn tutdi. Binobarin, faolligi uchun to'rt marotaba mamlakat miqyosida tengsiz hujumchi nominatsiyasi g'olib sifatida taqdirlandi.

Ana shu kezlarda o'zi tug'ilib o'sgan Jizzax shahrida voleybol zali qurish haqida bosh qotira boshladi. Biroq bu ish oson kechmadi. Va nihoyat, «Voleybol uyi» faoliyatini yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ldi. Unda yosh sportchilarning voleybol sirlarini o'zlashtirishlari, yashashlari, yuvinishlari, ovqatlanishlari uchun hamma sharoitlarni yaratdi. Mana, uch yildirki, maqolamiz qahramoni o'z sport zalida yosh voleybolchilarga mashg'ulotlar o'tayapti. Bir vaqtning o'zida 14 yoshgacha bo'lgan

16 nafar sportchidan iborat mamlakatimiz terma jamoasini xalqaro musobaqalarga tayyorlamoqda.

– O'zbekiston voleybol federatsiya tomonidan menga U-14 mamlakat terma jamoasini xalqaro musobaqalarga tayyorlash topshirilgan, – deydi Bunyod Egamqulov. – O'z navbatida, federatsiya sportchilarni oziq-ovqat bilan ta'minlamoqda, muntazam tashkil qilinayotgan musobaqalarni kuzatish asnosida eng iqtidordi yoshlarni tanlash imkoniga ega bo'ldim. Bu borada bizni har tomonlama qo'llab-quvvatlayotgan Ichki ishlar vaziri hamda viloyat IIB rahbariyatidan minnatdorman. Mazkur insonlar ko'magiga tayaniib, Jizzax viloyati super komandasini tuzishni rejalashtiryapman. Bu boradagi loyihani yaqinda respublika voleybol federatsiyasiga taqdim etdim.

Qahramonimizga xos fidoyilik va sportga bo'lgan muhabbat uning yangi orzusi ham ushalihsidan darak berayotir. Yana shunisi aniqli, Bunyod Egamqulov kabi jonkuyar insonlar bor ekan o'zbek sporti yuksalishda davom etaveradi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.



Yaqinda poytaxtimizning «Universal» sport saroyida sambo bo'yicha Osiyo-Okeaniya championati bo'lib o'tdi. Unda dunyoning 25 dan ortiq davlatidan 600 nafarga yaqin sportchilar g'o-liblik uchun o'zaro kurash olib bordi.

Musobaqada qatnashgan IIV Mala-ka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti katta o'qituvchisi, mayor Isroiil Bo'tayev 71 kg vaznda sport ustalari o'rtasida faxrlar ikkinchi o'rinni egalladi va jahon championatida ishtiroy etish huquqini qo'lga kiritdi.

Voleybol

Kosonsoy tumanida «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasida Ichki ishlar vaziri kubogi uchun o'tkazilayotgan voleybol musobaqasining hududlararo bosqichiga start berildi. Mahallalardagi yoshlar o'rtasidagi musobaqalarda g'olib jamoalar keyingi – tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.



MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinosbosarlari

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
mayor Aziza BOHODIROVA

Navbatchilar

kapitan Mixli SAFAROV
Radik TUMPAROV

Mas'ul kotib

Erkin SATTOROV

Sahifalovchilar

Zokir BOLTAYEV

Ilhom JUMANOV

Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar

Abu KENJAYEV

Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.

Bank kodи 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1157.

Bosilish – offset usulida.

Bichimi – A3.

Hajmi – 6 bosma taboq.

45502 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqt – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili: 100206

Yunusobod tumani,

Yangishahar ko'chasi 1st-uy.